


**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI (Tasviriyl san`at)

**Tasvitiy san`at fanining dolzarb
muammolari va zamonaviy yutuqlari**

MODULI BO`YICHA O`QUV-USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**TASVIRIY SAN'AT FANINING DOLZARB MUAMMOLARI VA
ZAMONAVIY YUTUQLARI moduli bo'yicha**
(Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi (Tasviriy san'at) yo'nalishi uchun)

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **p.f.n.,prof. S.F.Abdirasilov**

Taqrizchi: **p.f.d.,prof. S.K. Beysenbaev** - M.Avezov nomidagi «Janubiy-Qozog’iston davlat universiteti akademigi,

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining
qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(“30”-noyabr 2024-yildagi 4-sonli bayonoma)

MUNDARIJA

I.	IShChI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	12
III.	NAZARIY MATERIALLAR	27
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	88
	GLOSSARIY	124
	FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI	138

I. IShChI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagagi "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797- sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lif jarayoniga mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, masofaviy ta'lif xizmatlarini rivojlantirish, onlaynlarni amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar rejalashtirilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi – Ta’lim tizimining isloh qilinishi tufayli uning mazmunini tubdan yangilashga va ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish hamda sifat samaradorligini ko’tarishga qaratilgan.

Maxsus fanlarni o‘qitishda badiiy ta’limga oid bilim zahiralarini yaratish jahon amaliyoti saviyasida tashkil etish, kadrlar tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish, pedagogik ta’lim oluvchi shaxsda mustaqil fikrlovchi, bilimlarni mustaqil ravishda qidiruvchi, axborotlar to‘plovchi va ulardan foydalana oluvchi mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini orttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish kabi zarur nazariy va amaliy bilim, malaka va ko‘nikmalarini tinglovchilarda shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- zamonaviy fan yutuqlarini amaliyatga tadbiq eta olishi, muammoni yechishga ijodiy yondashishi;

- “Tasviriy san’at” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- tasviriy san’at faoliyatiga polifunksional tayyorgarlikning pedagogik asoslarini;

- o‘qituvchi, san’atshunos va rassom funksiyalarini bajarishning ilmiy-pedagogik xususiyatlarini;

- polifunksional tayyorgarlikning asosiy shakllari va takomillash- tirish yo‘llari, kvalifikatsion modeli va darajasini;

- badiiy ta’limning zamonaviy ko‘pbosqichli tizimining didaktik asoslarini;

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda ilg‘or ta’lim texnologiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillarini;

maxsus fanlar va uning maktablari, tarixi va rivojlanishi, maxsus fanlarda o‘quv va ijodiy jarayon, badiiy obraz va maxsus fanlar kompozitsiyasi, qonun-qoidalari, bajarish tartiblarini;

tasviriy san'at faoliyatiga polifunktional tayyorgarlikning pedagogik asoslarini;

o'qituvchi, san'atshunos va rassom funksiyalarini bajarishning ilmiy-pedagogik xususiyatlarini;

polifunktional tayyorgarlikning asosiy shakllari va takomillashtirish yo'llari, kvalifikatsion modeli va darajasini;

badiiy ta'limning zamonaviy ko'pbosqichli tizimining didaktik asoslarini;

oliy ta'limda pedagogik-psixologik hamda maxsus fanlarning mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasiga yo'naltirilganligini;

oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlardan o'quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni;

kasbiy sohasidagi pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos hususiyatlari, ularni tashkil etish va o'tkazishdagi yondashuvlarni;

tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari va dasturlarni ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

tasviriy san'atdan o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish;

maxsus fanlardan odam boshi va inson qomati qalamtasviri, inson portreti rangtasvirini ishslash;

ilg'or ta'lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini loyihalashtirish;

tasviriy san'at fanlaridan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

amaliy ishlardan ko'rgazmalar tashkil etish ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

ilg'or ta'lim texnologiyalari va vositalariga asoslangan ta'lim jarayonini loyihalashtirish;

nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hayotiy materiallariga asoslangan holda texnologiyalarni qo'llagan xolda dars mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

talabalarning amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirishlarini tahlil qilish va baholash;

amaliy mashg'ulotlarni "Ustoz-shogird"tizimi asosida tashkil etish;

pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar, metodlar va vositalardan foydalanish ***malakalariga*** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

ilg'or ta'lim texnologiyasi va axborot-kommunikatsiya vositasini yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlashda ta'lim jarayonida qo'llay olish;

intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash texnologiyasi va ta’limining mazmunini yaratish;

tasviriy san’atdan o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish;

ijodiy ishlarni muhokama qilish va tanqidiy tahlil qilish;

talabani ijodiy jarayonga yo‘naltirishda pedagogning kasbiy rivojlantirish ***kompetensiyasiga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uзвиyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishning nazariy asoslari”, “Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishning innovatsion muhitini loyihalash”, “Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari”, “Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” hamda “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarini joriy etish” kabi o‘quv modullari bilan uзвиy bog‘langan holda tinglovchilarining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogik kasbiy kompetentlikni oshirish, pedagogik mahoratga ega bo‘lish, pedagogik tajribalarini boyitish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, o‘z ustida ishslash, kasbiy takomilga yetishish, o‘z-o‘zini faollashtirish va o‘zida pedagogik texnikani rivojlantirish orqali ta’limning sifat va samaradorligini yuqori bosqichga ko‘tarishga imkon beruvchi ko‘nikma, malakalariga ega bo‘ladi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

Modulni o‘qitish uchun 20 soat hajmda o‘quv yuklanmasi ajratilgan bo‘lib, uning 8 soati ma’ruza va 10 soati amaliy mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan.

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Tasviriy san’at fanining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari	2	2	
2.	Tasviriy san’at fanlarida o‘quv va ijodiy jarayon, badiiy obrazni ifoda etish vositalari va kompozitsiya.	2		2

3.	Tasviriy san'at fanlardan odam boshi va inson qomati qalamtasviri.	6	2	4
4.	Tasviriy san'at faoliyatiga polifunksional tayyorgarlikning pedagogik asoslari	6	2	4
5.	Badiiy ta'limning zamonaviy ko'pbosqichli tizimining didaktik asoslari	6	2	4
Jami		22	8	14

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Tasviriy san'at fanining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari.

Tasviriy san'at fanining dolzarb muammolari. Badiiy maktab va Akademianing paydo bo'lish tarixi. Leonardo da Vinci tizimi asosida akademik qalamtasvirni o'qitish metodikasi. A.P.Losenko badiiy ta'lim mazmuni va metodlari. Aka-uka Karachchilarning akademik ta'lim tizimining shakllanishi. Rassom-pedagog A. Sapojnikov, qalamtasvirni o'qitishda uning ilmiy-metodik ishlarining o'rni. P.P.Chistyakovning pedagogik tizimi. D.N.Kardovskiyning qalamtasvirni o'rgatish metodikasiga qo'shgan hissasi.

2-Mavzu. Tasviriy san'at fanlarida o'quv va ijodiy jarayon, badiiy obrazni ifoda etish vositalari va kompozitsiya.

Tasviriy san'at fanlarining qisqacha rivojlanish tarixi. Tasviriy san'at fanlarida o'quv va ijodiy jarayoni. Badiiy obrazni ifoda etish vositalari. Kompozitsiya vositalari. Oltin kesim.

3-Mavzu. Tasviriy san'at fanlardan odam boshi va inson qomati qalamtasviri.

Tasviriy san'at fanlardan odam boshi va inson qalamtasviri. Inson portreti rangtasviri.

4-Mavzu: Tasviriy san'at faoliyatiga polifunksional tayyorgarlikning pedagogik asoslari.

O'qituvchi, san'atshunos va rassom funksiyalarini bajarishning ilmiy-pedagogik xususiyatlari; poli-funksional tayyorgarlikning asosiy shakllari va takomillashtirish yo'llari, kvalifikatsion modeli va darajasi.

5-Mavzu: Badiiy ta'limning zamonaviy ko'pbosqichli tizimining didaktik asoslari.

Tasviriy san'at ta'limining xorijiy taddiqotlar kontekstidagi metodlari va vositalari. Prang, Tedd, Augsburg metodik tizimi. Tasviriy san'at ijodiyotida bolalarning rivojida biogenetik konsepsiysi (K.Richchi, G.Kershenshteyner, K.Lamprecht).

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-Mavzu. Tasviriy san'at fanlarida o'quv va ijodiy jarayon, badiiy obraz va maxsus fanlar kompozitsiyasi. (2 soat)

Tasviriy san'at fanlarining qisqacha rivojlanish tarixi. Tasviriy san'at fanlari o'quv va ijodiy jarayoni. Badiiy obrazni ifoda etish vositalari va kompozitsiya. Oltin kesim.

Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishda badiiy mактабning metodlaridan foydalanish. Tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik tizimda foydalanish.

2-amaliy mashg'ulot: Tasviriy san'at fanlardan odam boshi va inson qomati qalamtasviri. (4soat)

Tasviriy san'at fanlarni o'qitishda talabalarining odam boshini tasvirlashni ishlanmalarini yaratish. Tasviriy san'at fanlar darslarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. Tasviriy san'at fanlarni o'qitishda talabalarining inson qomatini tasvirlashni ishlanmalarini yaratish. Tasviriy san'at fanlar darslarida pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish.

3-amaliy mashg'ulot: Tasviriy san'at faoliyatiga polifunktional tayyorgarlikning pedagogik asoslari. (4 soat)

Tasviriy san'at fanlarni o'qitish prinsiplari, metodlari va vositalari. O'qituvchi, san'atshunos va rassom polifunktional tayyorgarlikning asosiy shakllarini jadvalini tuzish. Tasviriy san'at fanlarni o'qitish prinsiplari, metodlari va vositalari. O'qituvchi, san'atshunos va rassom polifunktional tayyorgarlikning kvalifikatsion modelini yaratish.

4-amaliy mashg'ulot: Badiiy ta'limning zamonaviy ko'pbosqichli tizimining didaktik asoslari. (4 soat)

Oliy o'quv yurtlarida ko'pbosqichli tizimida tasviriy san'at fanlarini o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etishda tavsiya etiladigan mavzular bo'yicha taqdimot, sxema, jadval, diagramma, keys, plakat, hisobot, krossvord, skandvord, rebus, anagramma, albom, maqola, referat, tarqatma material va b. ijodiy ishlanmalar.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلотган loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

O‘QITISH VOSITALARI

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD- monitor, elektron ko‘rsatgich (ukazka), kadoskop, flipchart, doska, bo‘r, markerlar, magnitlar, A2, A3, A4 qog‘ozlari;
- **video-audio uskunalar:** videoproektor, video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar;
- **kompyuter va multimediali vositalar:** Internet tizimi, kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda jahon ta'limga maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'limga tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtida pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu ta'limga shakllarini optimizatsiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar ta'limga tizimi doirasida ta'limga jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta'limga alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limga qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta'limga umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Innovatsiya masalasiga alohida e'tibor berishimizning bir necha muhim sabablari bor. Birinchidan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekistonni mustaqillikka olib chiqish va mustaqil taraqqiy toptirish yo'li – "o'zbek modeli" behad katta va ulkan, uzoq muddatli, eng ustuvor va olamshumul umummilliylar innovatsion loyiha va dasturilamal bo'ldi. Ikkinchidan, innovatsiya, innovations faoliyat hamda innovatsion tizim O'zbekistonning o'z mustaqilligi uchun kurashda va taraqqiyot yo'li – "o'zbek modeli"ning tarkibiy qismi yo'nalishlaridan biri sifatida mustaqillik yillarda paydo bo'ldi. Uchinchidan, ma'lum bo'lganidek, bularning har ikkalasi – "o'zbek modeli" va innovatsiya o'zaro uzviy bog'liqlikda dunyoga keldi. Ularning biri ikkinchisini mazmunan boyitdi, jamiyatga ta'sirchanligini oshirdi. To'rtinchidan, "o'zbek modeli" ham, innovatsiya ham faqat bir buyuk maqsadga hizmat qildi va qilmoqda. Bu Vatan va millatni mustaqil qilib, takomillashtirish, jamiyat rivoji, ilm-fani va texnika

taraqqiyotini tezlashtirishdan iborat bo‘ldi. Bularni to‘la to‘kis anglash, masalaning mazmuni va mohiyatini yanada chuqurroq his qilish uchun eng avvalo, innovatsiya haqida alohida to‘xtalishiga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Chunki, bu mutlaqo yangi tushuncha va soha bo‘lib, hali to‘la-to‘kis anglanilganicha yo‘q.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (inglizcha **innovation** – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

Bu ensiklopedik qisqa ma’lumotda innovatsiyaga umumiy ta’rif-tavsif berilgan. Asosan tabiiy fanlar, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishlarga oid yangiliklar yoki umuman insoniy mehnat faoliyatları, yangilanishlariga sababchi bo‘ladigan yangiliklar, yangi intellektual bilim, g‘oya, nazariya va ta’limotlar nazarda tutilgan.

Innovatsiya tushunchasi va uning mazmuni ham xuddi fan metodologiyasi kabi keng – umumiy va tor, hususiy xarakterga ega.

Metodologiya bilan innovatsiya o‘rtasida o‘zaro umumjihatlik va maqsad birligi mavjud. Ularning har ikkalasi ham insoniy bilimlar takomil topishi, ishlab chiqarish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, har qanday innovatsiya va innovatsion loyihamalga oshirilishi, hayotga tadbiq etilishida aniq bir metodologik ilmiy g‘oya, ta’limot, nazariya, usul va tamoyillarga amal qilinsagina, ular ro‘yobga chiqadi. Aks holda, u quruq, natijasiz harakat bo‘lib, qoladi. Albatta, har yangilik, ya’ni innovatsiya ostida yangi g‘oya va texnologiya yotadi. Mana shu ishlab chiqarish yoki biror bir fan uchun ilmiy metodologik asos ya’ni yo‘l ko‘rsatuvchi, da’vat etuvchi kuch-quvvat bo‘ladi.

Metodologik asos va usullar qanchalik ilmiy haqiqatga yaqin bo‘lsa, innovatsion loyiha shunchalik muvaffaqiyat va samara bilan yakun topadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish orqali o‘qituvchi o‘zini yangi yaratilayotgan sharoitga tayyorlashi kerak bo‘ladi. Tajribali pedagog olimlarimiz o‘z vaqtini respublikamizda jamlangan boy tajribalarga suyanib yangi texnologiyalar yaratishga, ularga innovatsion texnologiyalarni singdirib, o‘zimizning zamonaviy pedagogik texnologiyamizni yaratish ustida hamjihatlik bilan ilmiy va metodik ish olib borishga sarflashi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yaratilgan o‘zimizning zamonaviy inovatsion pedagogik texnologiyalar asosida “Innovatsion maktab”lar tizimini yaratishga o‘tish zarur.

Bunday maktablarda barcha predmetlarni o‘qitishda axborot- kommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Shunda “o‘qituvchi– o‘quvchi” o‘rnida “o‘qituvchi–kompyuter–o‘quvchi “ tizimi hosil bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish o‘quvchilarda yangi tajriba egallashga intilishni rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash, kelajakka umid bilan qarash kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi va o‘z ortidan yangi imkoniyatlar ochib, ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga ham yangi yondashuv talab etilishiga sabab bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarining bir qator didaktik imkoniyatlari mavjud. Davrimiz talab ehtiyojiga ko‘ra axborot texnologiyalarini ta’lim muassalari o‘quv jarayonini sistemalashtiruvchi, bog‘lovchi, amaliy tashkiliy omil sifatida qaralishi mumkin. Axborot texnologiyalari kutubxonalar, hujjatlar va o‘quvchilarning ijodiy ishlari kabi axborotlar jamlanmasi, ma’lumotlar ba’zasini tuzish, ta’lim jarayonini sistemalashtirish, o‘quvchilarning amaliy ijodiy ishlarini tashkil qilish imkonini beradi.

Bu barcha vositalarni o‘quvchilar o‘qituvchining nazorati ostida, darsda shakllantirgan amaliy ko‘nikma, malakalarini amalga oshirish imkonи beradi.

Internet tarmog‘i o‘quvchilarga juda ko‘p imkoniyatlarni yaratadi. Internet tarmog‘iga chiqish orqali nazorat ishlari tarqatilishi va mahalliy elektron pochtadan qabul qilinishi mumkin. Bunday ko‘rinishdagi ishlar darsda masofaviy ta’limning tarmoq shakllarini modellashtirishga yordam beradi.

Kundan-kunga masofaviy tarmoq kurslari va tanlovlari ommalashib bormoqda. O‘qituvchi endi bilim axborotlarini yetkazuvchi yagona markaz emas, kompyuter texnologiyalarini qo‘llash bilan masofaviy ta’lim berish va olish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda.

Talabalar ko‘pincha Internet tarmog‘i orqali o‘z-o‘zini o‘qitish bilan qiziqib shug‘ullanmoqdalar, o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘ladilar, umumiyl qiziqishlarni topadilar. Bunday ishlar tarmoqdagi o‘zarо munosabatlarni shakllantiradi, Internet tarmog‘i talabaga telekommunikatsiya imkoniyatlarini his qilishni, boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan tanishish va birga ishslash vositasiga aylanmoqda.

Axborot texnologiya vositalari talabaga o‘z tasavvurlarini “elektron ko‘rinish”da namoyon etish va o‘z mahsulotining raqobatbardoshligini, o‘z g‘oyalarni ommaviyilagini tekshirish imkonini beradi. Talabaga haqiqiy qiziqarli va o‘ziga xos resurs yaratish uchun u birinchi navbatda, barcha ma’lumotlarni o‘rganib chiqishi, uning talablari ruhiyatining xususiyatlarini sezishi, resursning yangiligini belgilashi va amaliy ahamiyatini anglab yetishi zarur. Bularning barchasi talabaning o‘z bilimdonliklarini shakllantirishga, uning hayotdagi amaliy yo‘nalishini belgilashga sabab bo‘ladi.

“Aqliy hujum” metodi Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum (breynstroming - aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

“SWOT-tahlil” metodi.

S – (strength)

- кучли томонлари

W – (weakness)

- заниф, кўчсиз томонлари

O – (opportunity)

- имкониятлари

T – (threat)

- тўсиқлар

Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson.
W	Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
O	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
T	To‘sıqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo‘lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.

“Baliq skeleti”

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” chizmasi
Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. izimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmalarini to‘ldiradilar. Umumiyl chizmaga keltiradilar.

Ish natijalarining taqdimoti

Natyurmort nimadan tashkil topadi?

Kompozitsiyada natyurmortni qanday qonun va usullarini bilasiz?

Natyurmortda ijod etgan rassomlardan kimarni bilasiz?

Kompozitsiyani kelib chiqishi

Natyurmort o‘y ruzg‘or buyumlaridan tashkil topadi.


Dinamika- statika ritim, simmetr iya,

Z.Kavalevskaya., A.Ikromjonov R.Axmedov, R.Djalilova, O.Qozoqov

Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1.Rassom yangi g‘oyada asar yaratadigan inson.	1.Xar bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo‘llay oladigan insonni rassom deymiz.
2.Rassomlar tasviriy vositalardan, chiziqlar shakllar, vositalarni o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma’naviy estetik tarbiyalovchi	2.Dunyodagi g‘oyaviy kompozitsilarni tasvirla oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritsa bo‘ladi.	R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar uchun amaliy metodik o‘quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3.Rassomlar asarida insonnlarni ma’naviy-ma’rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3.Rassom bo‘lish uchun nima qilish kerak?	O‘ral Tansiqboev manzaralarini butun o‘zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4.Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4.Ijodiy asarlarni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullaev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5.Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	5.Kompyuterda ijodiy asar yaratса bo‘ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan

		ijokorlardandir.
6.O‘zbekistonlik rassomlar	O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan rassom pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: R. Xasanov, M. Nabiev, X. Egamov, R. Xudayberganov, N.Oripov va boshq.

Intererda natyurmortni aks etirish



xonani ichki ko‘rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san’at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko‘rinishlarda fon vazifasini o‘taydi.

Inter’erda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Inter’er - ichki me’moriy muxit xolati orqali xonadon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Inter’erda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko‘rsatilgan.

Inter’er, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san’at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasini qo‘llash.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan

iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qaerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’mnoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo‘yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo‘yicha o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

➤

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



“Brifing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo‘yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press - konferensiya.

O‘tkazish bosqichlari:



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

“Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o‘zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

O‘qitishning to‘rt pog‘onali usuli

Bu usul AQSh da paydo bo‘lib sanoat korxonalarida konveerli ishlab chiqarish ko‘paygan sari shunday o‘rgatish usullari zarur bo‘lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo‘l ko‘nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o‘rganib olishlari kerak edi.

Bu usulda amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni 4 pog‘ona doirasida kechadi. Bu pog‘onalarning nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko‘rsatib berish», «Ko‘rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». Ya’ni amaliyat o‘qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko‘rsatadi. So‘ng talaba shu ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyat o‘qituvchisi xatolarini to‘g‘rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

Unday keyin esa shu ish bosqichi mashq tarzida talaba uni mukammal o‘zlashtirgunicha ko‘p marotaba qaytariladi.

Bu usul psixologiyada asoslangan bo‘lib, bixevoirizm (ya’ni inson o‘zini tuta olishiga oid) naza-

To‘rt pog‘ona usuli doirasidagi harakatlar

4 pog‘ona deb quyidagi pog‘onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyat o‘qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

1-pog‘ona: Amaliyat o‘qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma’lum bir ish bosqichi yoki bir ko‘nikmani qo’llash uchun kerakli barcha ma’lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyat o‘qituvchisi og‘zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

2-pog‘ona: Amaliyat o‘qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko‘rsatadi, talabalar esa qarab



turishadi. Odatda amaliyot o‘qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. Ya’ni bu yerda demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatalishi mumkin.

3-pog‘ona: Amaliyot o‘qituvchisi ko‘rsatib bergen ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o‘qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o‘z fikrini bildirib, xatolarni to‘g‘rilab turadi.

4-pog‘ona: Har bir talaba ish bosqichini ko‘rsatilgan tarzda qaytarib, ko‘rganidan va ish bosqichini to‘g‘ri bajarish bo‘yicha amaliyot o‘qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko‘p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya’ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bundan keyin amaliyot o‘qituvchisi keyingi ish bosqichiga o‘tadi. Bu bosqich ham 4 pog‘onadan iborat.

Bu 4 pog‘ona usulining asosiy belgisi shuki :

- amaliyot o‘qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma’lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so‘ng esa talabalarning harakatlari bilan almashinadi;

- talabalarning harakatlari amaliyot o‘qituvchisi ko‘rsatib bergen harakatlar doirasi bilan cheklangan;

- talabalar individual o‘rganishga (o‘zlashtirishga) yo‘naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo‘q;

- ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Yo‘naltiruvchi matn usuli

Yo‘naltiruvchi matn usuli o‘tgan asrning 70 yillarda Germaniyada, «Daimler Benz» korxonasining Gaggenau shahridagi (Daimler Benz AG (Gaggenau)) o‘quv ustaxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu usul tovush va tasvirli prezentatsiyalar bilan jihozlangan mustaqil o‘rganish dasturlari shaklidagi loyihaviy kasb-hunar ta’limiga qo‘srimcha sifatida ishlab chiqarilgan.

Boshlang‘ich shaklida bu usul kasb-hunar ta’limi amaliyotchilari tomonidan ishlab chiqarilgan, keyinchalik esa nazariy jihatdan asoslanib ilmiy asosda takomillashtirilib oliv ta’limda qo’llanila boshlangan.

Yo‘naltiruvchi matn usulida quyidagi 6 bosqich farqlanadi; ular

doirasimon harakatda almashishadi:

- ma’lumot yig‘ish;
- rejalashtirish;
- qaror qabul qilish;
- amalga oshirish;
- tekshirish;
- xulosa chiqarish.

Йўналтирувчи матн үсули босқичлари



Bu bosqichlar hammasi talaba tomonidan amalga oshiriladi. Bu usulni ishlab chiqarilishiga sabab loyihalar ustida ish bilan bog'liq tashkiliy muammolar edi, chunki o'quvchilar har xil tezlikda ishlashlari tufayli butun guruh uchun instruktaj o'tkazishga qulay vaqtini topish qiyin edi. Bir talaba hammadan tez ishlab yangi ko'nikmani o'r ganishga tayyor bo'lgan bo'lsa, sekinroq ishlagan talabalar uchun esa yangi instruktajning foydasi juda kam edi. Qaytaga yangi instruktaj ularning ishlariga xalal berganday yoki keragi yo'q to'xtalish kabi tuyular edi. Ya'ni talabalar qiziqishi (motivatsiyasi) qisman barbod qilinadi.

Yo'naltiruvchi matnlar yordami bilan mustaqil instruktaj imkoniyati paydo bo'ldi va har bir talaba aynan unga yangi ko'nikma uchun bilimlar kerak bo'lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo'ldi.

ng birinchi yo‘naltiruvchi matnlar - bu asli og‘zaki ravishda o‘tkaziladigan instruktajlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma’lumotlar talabalarga iloji boricha og‘zaki berilar edi.

Bugungi kunda esa yo‘naltiruvchi matnlar shunday tuzilganki talabalar yo‘naltiruvchi savollar yordamida o‘zlari kerakli ma’lumotlarni (kitob, jadval, instruksiya, videokassetalar yoki kompyuter disklaridan olib) ishlab chiqarishni o‘rganishadi.

Natijada hozir yangi bir o‘rgatish usuli va yangi bir o‘rganishni tashkillashtirish tarzi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi - bu o‘quvchi ko‘proq mustaqil ravishda o‘rganishidir; amaliyot o‘qituvchisi esa zaifroq talabalar bilan ko‘proq shug‘ullanishi mumkin bo‘lib qoldi. Talabalarning mustaqil ishlashi esa o‘z navbatida qo‘srimcha foyda keltirmoqda: yuqoriroq ko‘nikma va qobiliyatlar sohasida ya’ni birgalikda muloqotda bo‘lish, birgalikda reja tuzish, qaror qabul qilish hamda o‘z ishini tekshirish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Komandada (birgalikda) ishlash orqali muayan ijtimoiy kompetensiyalar rivoj topadi va ularga mo‘ljallangan maqsadlar ham belgilanishi mumkin bo‘ladi. Ko‘rib turibmizki, vaqt o‘tgan sari yo‘naltiruvchi matn usuli qo‘llanishining ma’nosи o‘zgardi chunki bugungi kunga kelib bu usul aynan o‘sha «poydevor kvalifikatsiyalar» deb atalgan qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo‘llanadi. Bu tushunchani Germaniyada ta’limot munozarasiga mehnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetensiyalarni (ya’ni fikrlash, tashkillashtirish va rejalahtirish usullarini) atagan.

Hozirgi kunda esa bu tushuncha bilan shunday qobiliyatlar ko‘nikma va o‘zini tutish tarzları ataladiki, ular aynan shu kasb-hunarga oid kvalifikatsiyalardan tashqari va ularga qo‘srimcha sifatida barcha boshqa kasb-hunarlarda kerak bo‘ladigan hatti-harakatlarni bildiradi.

4 pog‘ona usuli bilan solishtiradigan bo‘lsak bu usulda amaliyot o‘qituvchisining faoliyati ko‘proq darsdan oldin va darsdan keyin qilinadigan ishlardan iborat. Lekin bevosita instruktaj jarayonida qilinadigan ishlar emas; o‘quvchilar esa qaytaga barcha davrlarda (fazalarda) mustaqil ishlashadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Tasviriy san'at fanining dolzARB muammolari va zamonaviy yutuqlari.

Reja:

1. Tasviriy san'at fanining dolzARB muammolari. Badiiy mакtab va Akademianing paydo bo'lish tarixi.

2. Qalamtasvir va uning ilmiy-metodik ishlarining o'rni.

Tayanch tushunchalar: *tasviriy san'at fanlari, badiiy akademiya, qalamtasvir.*

Tasviriy san'at fanining dolzARB muammolari. Ta'limning barcha yo'naliшlarida raqamli transformatsiya bo'lmoqda va juda murakkab vazifadir. Shu jumladan: raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan ta'lim maqsadlarini belgilashga yangi yondashuvni ishlab chiqish;

raqamli ta'lim texnologiyalari, vositalari va resurslarini ishlab chiqish va joriy etish (raqamli ta'lim muhitini shakllantirish);

raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik salohiyatidan maksimal darajada foydalanishni ta'minlaydigan ta'lim jarayonini o'zgartirish.

So'nggi yillarda markazlashtirilgan ta'lim modelidan tarmoq aloqalariga o'tish, moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish va individual ta'lim traektoriyalarini qurish kuzatilmoxda. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayoni boshlanishi bilan muassasalarning rivojlanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda, o'qitishning yangi formatlari rivojlanmoqda.

Raqamli ta'lim jarayonining qurilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

a) yangi texnologiyalar; b) raqamli iqtisodiyotning kadrlar uchun yangi talablari; v) «raqamli avlod»;

Shu munosabat bilan zamonaviy talabalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa va kasbiy faoliyatga tayyorlashga mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etishda global o'zgarishlar ro'y bermoqda. Zamonaviy mehnat bozori shaxsiy rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilashga undaydigan, ishni o'qish bilan birlashtira oladigan, raqamli savodxonlik, ijodiy nostandard yechimlarga moyillik, muloqot qobiliyatlari kabi professional vakolatlarga ega bo'lgan mutaxassislarga muhtoj.

Oliy o'quv jarayonini raqamlashtirish quyidagilardan iborat:

mavjud ta'lim jarayonini o'zgartirish va qayta ko'rib chiqish;

kasbiy ta'limda virtual vositalar va real ishlab chiqarish jarayonlarining maqbul almashinuvi;

o‘qitishning yangi shakllari va usullaridan foydalanish va o‘quv faoliyatini tashkil etish orqali o‘quv jarayoniga nisbatan moslashuvchanlikni rivojlantirish;

yanada murakkab vazifalarni hal qilishga tayyorligini qo‘llab- quvvatlash uchun virtual haqiqatdan foydalanish orqali talabalarning o‘quv faoliyati va mustaqilligini rag‘batlantirish;

mehnat bozorida kasblar va bo‘sh ish o‘rinlarining jozibadorligini oshirish.

Ta’lim sohasini raqamlashtirish sharoitida pedagogik ta’lim didaktikasi modernizatsiya qilinmoqda.

Raqamli didaktikaning ta’sir doirasi raqamli texnologiyalar faoliyati sharoitida rivojlanadigan ta’lim ekotizimidir. Raqamli didaktikaning asosiy farqlari **quyidagi qoidalarga asoslanadi**.

1. **O‘quv jarayonining tizimni** tashkil etuvchi elementlarini o‘zgartirish (maqsadlar, tarkib, shakllar, o‘qitish usullari va vositalari). Raqamli didaktika raqamli jamiyat ehtiyojlari va talabalarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan zamonaviy o‘qitish usullari va raqamli o‘quv vositalarini yaratish uchun o‘quv faoliyatining barcha darajalarini intensivlashtirishga qaratilgan. An’anaviy va e-Learning kombinatsiyasi bo‘lgan yangi ta’lim shakllari (onlayn, aralash, gibrid, kombinatsiyalangan) paydo bo‘lmoqda.

2. **Ta’lim faoliyatining yangi tashkiliy shakllarining paydo bo‘lishi.** Raqamli ta’lim muhitida ta’lim faoliyatining xilma-xilligi yangi tashkiliy shakllar (vebinarlar, videokonferensiylar, video ma’ruzalar, virtual konsultatsiyalar, virtual repetitorlik va boshqalar) to‘plami orqali amalga oshiriladi.

3. **O‘quv materialini taqdim etish tarkibini o‘zgartirish.** An’anaviy didaktikada o‘quv materialini taqdim etishning eng keng tarqalgan tuzilmalari chiziqli (o‘quv materialining bo‘laklari o‘zaro bog‘liq elementlarning uzlusiz ketma-ketligi shaklida taqdim etiladi), konsentrik (yangi materialni o‘rganish ilgari o‘tganlarni takrorlash asosida amalga oshiriladi), spiral (o‘rganilayotgan muammo har doim o‘z ko‘rinishda qoladi, asta-sekin kengayib boradi va u bilan bog‘liq ma’lumotlar chuqurlashadi). Raqamli ta’lim muhiti gipermatnli tizimdan foydalanadi, bu esa havolalarni bosishga imkon beradi.

So‘zlar, iboralar yoki rasmlarga kiritilgan havolalar “Navigator” bo‘lib xizmat qiladi va foydalanuvchiga darhol ma’lumot va media materiallarini namoyish etishga imkon beradi. Ushbu texnologiya turli xil ma’lumotlarni birlashtirib, yuqori darajadagi ko‘rinishi bilan ajralib turadigan o‘quv materialining gipermediya qismlarini yaratishga imkon beradi.

4. **Ta’lim resurslarining yangi turlarining paydo bo‘lishi.** Zamonaviy ta’lim jarayoni didaktik muammolarni hal qilish va o‘quvchiga kompleks ta’sir ko‘rsatish uchun ulkan salohiyatga ega bo‘lgan raqamli ta’lim

resurslari bilan to‘ldirilgan: o‘rganishga qiziqishni rag‘batlantirish; ijodiy salohiyatni rivojlantirish; bilimlar doirasini kengaytirish; o‘qituvchi va talaba o‘rtasida aloqa va fikr-mulohazalarning yangi shakllarini o‘rnatish; avtomatlashtirilgan o‘zini o‘zi boshqarishni joriy etish; o‘qituvchining o‘qitish sifati va kasbiy darajasini oshirish va boshqalar.

Raqamli ta’lim resurslari raqamli shaklda saqlanadigan va uzatiladigan axborot ta’lim resurslari.

Bularga quyidagilar kiradi:

«an’naviy» manbalar (video, audio segmentlar, statik tasvirlar va boshqalar) raqamli shaklda taqdim etiladigan ta’lim resurslari;

Faqat raqamli formatda ishlaydigan manbalar (interfaol sxemalar, testlar, topshiriqlar); dinamik modellar; elektron darsliklar va qo‘llanmalar, o‘quv kurslari; ma’lumotlar bazalari; taqdimotlar; elektron jurnallar; amaliy dasturlar to‘plamlari va boshqalar.

5. Virtual haqiqat mavjudligi. Zamonaviy raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari virtual dunyoni yaratishga va virtual haqiqatga kirishga imkon beradi. Virtual haqiqat atamasi insonning ma’lum bir muhitda bo‘lish hissi sun‘iy ravishda yaratilgan har qanday vaziyatni anglatadi.

O‘qitish usullari va texnologiyalarini kiritish orqali virtual haqiqat o‘rganilayotgan ob’ektlar bilan audiovizual va hatto hissiy aloqani amalga oshirishga imkon beradi; haqiqatda mavhum va takrorlanmaydigan tasvirlar va hodisalarni o‘rganish; turli xil shaxsiy ob’ektlar, syujetlar, jarayonlarni kontaktsiz boshqarishni amalga oshirish; g‘alati qarashni rivojlantirish; estetik didni shakllantirish.

Virtual haqiqat vositalari va texnologiyalaridan foydalanish o‘quv motivatsiyasini kengaytiradi, o‘quv faoliyatini faollashtiradi, o‘quv jarayonini yaxshilaydi, turli xil, vizual, intuitiv va nazariy fikrlashni rivojlantiradi.

6. O‘qituvchining rolini o‘zgartirish. O‘qituvchining rol funksiyasi o‘zgaradi: o‘qituvchi o‘quv jarayonining markazi va asosiy ma’lumot manbai bo‘lishni to‘xtatadi, uning asosiy vazifasi o‘quv tizimiga yangi bilimlarni o‘zlashtirish metodologiyasini kiritishdir.

Talaba ta’limning maqsadlari va mazmunini aniqlash jarayonida sub’ektiv pozitsiyaga o‘tadi. Ushbu yondashuv har bir kishiga ma’lumot va bilimlarni topish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun turli xil texnologiyalar va texnik vositalarni qo‘llash orqali hayot davomida ta’lim va yangi vakolatlarni olish imkoniyatini beradi.

Raqamli didaktikaning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

ta’limni shaxsiylashtirish (talabalarning o‘quv jarayonining traektoriyasini mustaqil ravishda aniqlash);

moslashuvchanlik (talabalarning xususiyatlari uchun dasturni avtomatik sozlash);

to‘yinganlik (turli manbalar, xizmatlar, ta’lim resurslari bilan ishlash); polimodallik (o‘quv jarayonida turli xil idrok etish usullaridan (vizual, eshitish, motor) foydalanish va buning uchun turli xil qurilmalar - trenajorlar, simulyatorlar, kengaytirilgan haqiqat vositalaridan foydalanish);

baholashning kiritilishi (o‘quv jarayoni davomida talabaning muvaffaqiyatini doimiy monitoring qilish va baholash).

Adabiyot tahlili oliy ta’limni raqamlashtirish bilan bog‘liq to‘rtta yo‘nalishni ajratib ko‘rsatdi. Bu an’naviy ta’lim dasturlari va o‘quv fanlariga raqamli vositalar va texnologiyalarni joriy etish yoki aralash ta’lim modelini shakllantirish;

- onlayn ta’limni rivojlantirish;
- virtual (raqamli) ta’lim muhitini yaratish;
- ta’lim tashkilotlarini boshqarishga yondashuvni o‘zgartirish.

Oliy ta’limni raqamlashtirish jarayonini takomolashtirish uchun oliy ta’lim tizimidagi fanlarni o‘qitishdagi zamonaviy usullar texnologiyalarini ishlab chiqish, qo‘llash va tadbiq qilish mamlakatimiz ta’lim sohasidagi olib borilayotgan maqsadlarga muvofiq va bu jarayonni rivojlantirish, amalga oshirish maqsadida me’yoriy-xuquqiy asoslari bosqichma-bosqich ishlab chiqish lozim.

to nazokatli shaklgacha, san'atni kam-kamdan va sekin-astalik bilan rivojlangan deb o'ylashardi. Haqiqatdan ham, 1879 yilda Ispaniya Altomirda topilgan bиринчи devoriy rasmlarni qalbaki deb hisoblashgan. Keyingi topilmalar, Laskoning rasmlarini qo'shgan holda, barcha shubhalar o'chirib tashlandi: miloddan avvalgi 15 ming yilda tasviriy san'at mavjud bo'lgan.⁴

O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrasiyob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepe, Ayrtom, Dalvarzin tepe, Fayoz tepe, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepe, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Bu asarlar eramizdan avvalgi IV-I-asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiyy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y bergenligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablarida, xususan, umumiyy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarida san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishslash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiyy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiyy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek,

⁴ Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-12

ustoz Miraq naqqoshning Xirot “Nigoristoni” (San’at akademiyasi) bo‘lganligi va unda Kamoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma’lum.

Professor Orif Usmonov o‘zining “Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi” nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtida nafis tasviriy san’at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o‘z atrofiga eng iste’dodli yoshlarni to‘plagani, ularga san’atining sir- asrorlarini o‘rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzahhib, Mavlono Yoriy, Xasan Bag‘dodiy, Abdulla Sherazi, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali singari o‘nlab iste’dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san’at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma’lumotlardan ayon.

O‘zbekistonda hozirgi zamon ta’lim tizimining paydo bo‘lishi XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Bir guruh fan va madaniyat vakillari Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar Turkistonga yuboriladi. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o‘z asarlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommunal ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o‘lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, yangi Buxoroda san’at to‘garagi tashkil etildi, muslimonlar uchun tasviriy san’at kurslari ochildi. Bir yildan so‘ng respublikada badiiy muktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug‘ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yili ochilgan badiiy politexnikumda 170 o‘quvchidan 150 tasi o‘zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san’at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S.Chuykov, mahalliy yosh rassomlardan O‘. Tansiqboevlar yoshlar bilan mashg‘ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O‘zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko‘proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo‘lsa-da umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash borasida ham ma’lum rol o‘ynadi.

Shu bilan birga ta’lim tizimida estetik va badiiy ta’lim masalalariga ham e’tibor qaratila boshlandi.

Tasviriy san’at fanlari o‘quv va ijodiy jarayoni.

O‘quv jarayoni - bu o‘z mazmunida dunyoviy ilmiy bilimlarni tashkil etish va yetkazishga, mazmun, shakllar, vositalarni, o‘qitish usullarini o‘zaro bog‘lab, o‘quvchilar atrofni maqsadli anglashiga yo‘naltirilgan yaxlit

didaktik tizim.⁵ O'quv jarayonida bilimlar orqali o'quvchilarning badiiy rivojlanishini va estetik tarbiyasini ta'minlaydi.

Ijodiy jarayon - bu ongning oliy darajasi, faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo'lib, u insonga hosdir. Tasviriy san'atda ham ijodning natijasi badiiy asar yaratishdan iborat bo'ladi. Ya'ni, ob'ektiv borliqni maxsus shakldagi xususiyatlarini badiiy obrazlar tarzida aks ettirishdir. Xaqiqiy san'at asari - o'zida badiiy obraz shaklida hali bungacha bo'lmagan yangilikni yaratilishi hisoblanadi.

Badiiy ijod esa ijodiy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bunda rassom g'oyaviy-badiiy mazmunni jam etgan holda tugal badiiy asar yaratadi. Ijod va ijodiy jarayonlar xuddi fandagidek san'atda ham o'zining murakkab ko'rinishlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ijod shunday mehnatki, u ma'naviy boyliklar yaratishga qaratiladi. Ijodiy mehnat hajmi bo'yicha katta, xarakteri jihatidan rang-barangdir. Mehnat natijasida san'at asari yaratiladi. Rassom mehnati turli- tumandir. Ular adabiyotlar o'qish, muassasalarga borish, jamoalarga borish, tabiatni kuzatish, qoralama va xomaki rasm, etyudlar bajarish, ko'rilganlar haqida fikrlash, kompozitsiya eskizlari ustida ishslash va xokazolar. Rassom ijodiy mehnatini shartli ravishda **ikki turga ajratish** mumkin. ***Birinchisi***, turli hil kuzatishlar va hayotni o'rganish, bilim, did va dunyoqarashning o'sishi, mahorat, ko'nikma, malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lsa, ***ikkinchisi*** – bu asar yaratish bilan bog'liq bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatli bo'lib, bu g'oyaning xarakteri, rassomning individual xususiyatlaridan kelib chiqadi. Rassomning keng ko'lamdagi mehnati, ijodiy jarayonining murakkabligi - bular barchasi san'atda professionallik majburiyatini yuklaydi, tasviriy san'atda yanada alohida maxsus holatlari talab etiladi.

Juda ko'p mashq qilgan va o'zining ko'rish hotirasini rivojlantirgan buyuk rus rassomi V.A.Serov kichik yoshidanoq surat chizishni boshlaganda hotiradan chizishni yoqtirardi. Undan buni ustozи (keyinroq) I.E.Repin ham talab qilgan edi. I.K.Ayvazovskiy esa hayron qolarli darajada ko'rish hotirasini egallagan edi. Rus rassomlari – manzarachilari F.A.Vasilev, I.I.Levitanlarning ko'rish hotiralari rivojlanganligini izohlashga hojat yo'q. Iroda – ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. (Ovannes Gevorkovich Ayvazyan)

2. Badiiy obrazni ifoda etish vositalari va kompozitsiya.

Obraz tushunchasi bilish nazariyasining tarkibiy qismidir. «***Obraz***» deb inson ongida narsa va hodisalarining aks etishi tushuniladi. Inson

⁵ M.Yu. Oleshkov, V.M. Uvarov. Sovremennyyi obrazovatelnyi protsess: osnovnyie ponyatiya i terminy. – M.: Kompaniya Sputnik, 2006. Str.93.

o‘zining sezgisi, idroki, tasavvuri, tushunchasi va shu kabilar orqali tashqi dunyonи **obraz** shaklida anglaydi.

Badiiy obraz manbai «jonli hayotdir». Badiiy qiyofa voqelikni qayta anglash bo‘lib, estetik tushunchalar sirasiga kiradi.

Badiiy obraz xususiyatlarini inson bilishi jarayoni umumiy qonuniyatlaridan ajratib mushohada etishi mumkin emas. Badiiy qiyofa bilishning bir turidir. Bilish qonuniyatlari san’atda o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, badiiy qiyofa esa jonli mushohada va mavhum tafakkur belgilariga ega bo‘lsa-da, uni ham, buni ham anglatmaydi. Badiiy obraz – hayat kabi murakkab, sermazmun. San’atda hayatning hamma murakkabliklari, qirralari, munosabatlar majmui badiiy obrazda umumlashtiriladi, unda tashqi (*ob’ektiv*) va ichki (*sub’ektiv*) tomonlar mavjuddir.

San’atkoring his-tuyg‘ulari, kechinmalari, rejali manbai bo‘lgan voqeahodisalar, turli vaziyatlar, to‘qnashuvlar badiiy obrazning tashqi (*ob’ektiv*) tomonidir. Badiiy qiyofa tashqi dunyonи inson ehtiyojlariga mutanosiblikda aks ettiradi, ya’ni hayatni estetik qadriyat sifatida ifodalaydi.

Portret – tasviriy san’atning eng qadimgi, eng keng tarqalgan va uning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqr, atroflicha ochib beruvchi janrdir.

Biz bu janrning rangtasvir hamda qalamtasvirdagi afzalliliklarini ma’lum darajada ko‘rib chiqish, ularni uzaro solishtirib, chuqr tahlil qilish imkoniyatiga egamiz. Bilamizki, portretlar ishlanishiga ko‘ra yelkagacha, belgacha yoki bo‘ybaravar bo‘lishi mumkin. Rangtasvirda ishlangan portretlarda tasvir ko‘pincha tizzagacha bo‘lgan ko‘rinishda uchraydi. Modellar turlicha xolatlarda, ba’zan kiyim-kechaklari diqqatni tortmaydigan, ba’zan esa ko‘zni qamashtiradigan darajada aniq va yorqin tugal qilib ishlangan bo‘lishi mumkin. Bunday qiyofani ba’zan tekis, to‘q fonda, ba’zan manzara fonida, yoki interer muxitida ko‘ramiz. Fon qanaqa bo‘lishidan qat’iy nazar, odatda asosiy e’tibor yuz ko‘rinishiga qaratilgan bo‘ladi.

Portretdagi bu tashqi farqlanishlar, modelning ichki dunyosini ochib beruvchi farqlanishlarning namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Portret – insonni o‘zi yashayotgan davrdagi tashqi dunyo bilan munosabatini, jamiyatdagi o‘rni, yashash tarzini aks ettiruvchi xamda uning, ma’naviy va estetik dunyosiga baho beruvchi san’at asaridir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, portret rangtasvirini – davr qiyofasi deb ayta olamiz.

Ammo albatta, bu ta’rif rangtasvir uchun absolyut tushuncha emas. Endi uning tendensiyalari haqida so‘z yuritamiz.

Ma’lumki, portret yaratilayotganida rassom o‘zi aks ettirayotgan modelni o‘rab turgan atrof-muhit ta’siridan «tozalab», uni inson-shaxs sifatida qandayligini ochib beruvchi zarur dalillar bilan to‘ldiradi. Ya’ni tasvirlanuvchining ichki dunyosi bilan «tillashuv» olib boradi.

Bunday yondashuv orqali uning yuz tuzilishi, ko‘zлari, yuz ifodasi o‘sha inson to‘g‘risida imkon darajada ma’lumot beradi. Portretning asl mohiyati va bahosi esa o‘z navbatida rassom mahorati bilan o‘lchanadi.

Yuz – har bir inson uchun individual, betakrordir. Chunki, dunyoda qancha inson bo‘lsa, shuncha turdagи yuz ko‘rinishlarini uchratamiz. Demak, xar bir inson yuzi qaytarilmas ekan, uning nafaqat tashqi «tabiiy chexrasи», balki o‘ziga xos ruhiyatiga yo‘g‘rilgan ichki dunyosi ham betakrordir.

Har bir shaxsning ma’naviy dunyosi, uning individual yuz tuzilishi, qalbi, aql darajasi va o‘zigagina xosligi umumiyligida xususiyatlар bilan chambarchas tarzda hamjihatlikda o‘z ifodasini topadi.

Bilamizki, har bir inson jamiyatning ma’lum bir qatlamiga, o‘z mashg‘uloti, kasbi, hayot tarzi, fikr-mulohazalari bilan ma’lum bir insonlar kategoriyasiga, psixologik temperamentiga taalluqli bo‘ladi.

Ayniqsa, o‘sha model atrofini o‘rab turgan predmetlar orqali, kiyim- boshi, o‘zini tutish yo‘sini, qo‘l xarakatlari, gavdani tutish xolati-ya’ni: o‘zigagina xos shaxsiy xususiyatlari orqali ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. Shuningdek, inson chexrasи – uning jamiyatning qaysi qatlamiga ta’luqliligiga, shaxs sifatida tan-joniga singib ketgan umumiyligida xususiyatlарiga uning individual fe’l-atvori bilan birlashuvi shaxsning o‘ziga xosligini shakllantiradi.

Qalamtasvirda ishlangan portret yuz tasviridagi urg‘u shaxsning ichki holatiga, o‘sha paytdagi kayfiyatiga yoki biror bir konkret, shaxsiy xususiyatiga, ma’naviy individualligiga va eng muhimi insonning umumiyligida tarziga taalluqli ekanligiga qaratilgan bo‘ladi. Bu o‘z navbatida rassomga tasvir etilayotgan odamning yuz ifodasi orqali uning xarakterini ochib berish imkoniyatini beradi.

Musavvir qalamtasvir portreti ustida ish olib borar ekan, u bu jarayonning boshidan-oxirigacha natura bilan yuzma-yuz ishlaydi.

Bilamizki qiyofachining yuz ifodasi turli ma’nolarni aks ettiradi. Lekin, shunga qaramay, insonning dunyo bilan o‘zaro munosabatini va ichki olamini to‘liq va ko‘pqirrali tarzda etib yoritish imkoniyatini bermaydi.

Qalamtasvirda ishlangan portretda modelning ichki dardlari, hayotdagi muvaffaqiyatlari, inson sifatida qanday ekanligini ochib berish vazifasi tursa, rangtasvir portretda bu insonning obrazini kelajak – avlodga qoldirish, jamiyatga, odamlarga tanishtirish maqsadi xam yotadi.

Shuning uchun rassom modelning muhim inson ekanligini, insoniylik qirralarini yanada ko‘proq va bo‘rttirobq ko‘rsatib, avlodlarga munosib, ulkan e’tirof bilan namoyon etib berishga urunadi. Uning dunyo bilan, vaqt bilan bog‘liqligini, hamohangligini ochishga harakat qiladi.

Portret san’atida uchrab turadigan xususiylikdan umumiylikka o‘tishning uchta darajasini belgilash mumkin: bunda portreti ishlanayotgan modelning hayotidagi aynan o‘sha paytdagi ruxiy holati, uning shaxs sifatidagi fe’l-atvori hamda jamiyatdagi ijtimoiy, ma’naviy o‘rnini va u yashayotgan davr to‘g‘risida xam ma’lumot berishidadir.

Qalamtasvirda portret o‘z strukturasiga ko‘ra aniq ikki yechimni: modelning ichki holatini va ma’naviy o‘ziga xos dunyoqarashini namoyon etadi. Bunday portretlar kamdan-kam hollardagina tasviriy san’atning keng qamrovida vujudga keladi.

Rangtasvir portretlarida esa aksincha, aniq holatlar kamroq uchrab, tasvirdagi shaxsning ijtimoiy tizimdagi o‘rnii anchayin ideallashtirilib badiiy tarzda aks ettiriladi.

Lekin baribir, qalamtasvirda ham, rangtasvirda ham modelning ma’naviy xarakteri portretning bosh vazifasi bo‘lib qolaveradi. Vazifalar yechimi turlicha bo‘lgani uchun natijada obraz ham o‘zaro farqlanadi. Ko‘pincha qalamtasvirda modelning yelkasigacha bo‘lgan tasviri tabiiy holatda tasvirlanadi va fon erkin tanlanadi. Portretning barcha xususiyatlarini asosan modelning yuz qiyofasi ifodalaydi.

Rangtasvir portretini yaratishda esa rassom o‘sha shaxs va o‘sha zamon to‘g‘risidagi fikrlarini, tasavvurlarini xam qo‘sib ifodalashi kerak bo‘ladi. Bu esa tasvirlashda portret kompozitsiyasini topib, unga mos ravishda muhit, libos, fon va turli aksessuarlar tanlovini xam amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Portretning qalamtasvir va rangtasvir yechimida asosan ikki masala hal etiladi: biri – shaxsning individualligi, o‘xhashligi bo‘lsa, ikkinchisi esa – **obrazning umumlashgan, ideallahsgan ko‘rinishidir**.

Portret san’atidagi bu ikkala yondashuv, ikkala holatni tasvirlashning boshqa janrlarida ham uchratish mumkin. Demak, shunday xulosaga kelish mumkin: «qalamtasvir portretning birinchi chizig‘i, rangtasvir esa uni rivojlanтирувчи, mukammallashtiruvchi ikkinchi chizig‘i»dir.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida berilgan ta’rif hamma portretlar uchun ham mutloq bir xil bo‘lavermaydi.

Tasviriy san’atning keng olamida qalamtasvirda ishlangan portretlarda ham uning muhiti, ma’lum bir fonda o‘sha shaxsning dunyodagi o‘rnini ifodalashi mumkin. Va aksincha, rangtasvir portretida ham rassom butun diqqatini asosan modelning yuziga qaratib, uning aniq bir holatiga urg‘u berishi mumkin.

Endi rangtasvir portreti uchun mo‘ljallangan qalamtasvirni o‘rganib chiqamiz. Uni ishlaganda, u portret etyudi uchun yoki mustaqil rangtasvir portreti uchun deb ajratib bo‘lmaydi. Chunki portretning tayyorlov qalamtasviri va uning yordamida ishlangan rangtasvir portreti solishtirilganda, undagi kompozitsiya yechimida umuman farq bo‘lmaydi. Lekin rangtasvir portretida xomaki qalamtasvir to‘liq qaytarilsada, obraz yaratishda ancha-muncha farq bo‘ladi.

Bilamizki, XVII asr – «koltin portret asri» deb nom olgan. Bu davrda ishlangan rangtasvir, qalamtasvirlarda bir xil topilgan portret kompozitsiyalarida bunday holat juda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qalamtasvirda

ham modelning aniq ichki ruxiy holati keng miqyosda berila boshlagan. Bu asrga kelib, portretning his-tuyg‘uga boyligi ochiq va turlichalangan.

Mashhur rassom P.Rubens hayotining so‘ngi yillarida ishlangan «Avtoportret»ida donishmandlik, qayg‘u, ichki dard, bezovtalik shunday bir kuch bilan ifodalanganki, unda inson umrining yakunida his etadigan tuyg‘ulari ro‘yi – rost namoyon bo‘lib turadi.

P.Rubensning rangtasvirda ishlangan «Avtoportret»ida esa yuz ifodasi bir oz yumshaganligi seziladi. Qalamtasvirida yuz diqqatni qattiq tortsa, rangtasvir portretida obraz uning tik, viqorli gavdasi bilan romantik liboslarga o‘ralib turishi, ya’ni tashqi qiyofaga berilgan e’tibor bilan yaxlitlik kasb etgan. Bu yerda inson dardi, uning viqorli, romantik turishidan ustun kela olmagan. Chunki rangtasvir portreti uchun ishlangan qalamtasvir erkin ijro etilgan. Rassom rangtasvir portretini qalamtasvir asosidagina yaratishga erishgan.

Rangtasvir portretiga mo‘ljallab ishlangan qalamtasvirlarning to‘liq va yorqin obrazli bo‘lishi portretlar turli kompozitsiya yechimlari asosida ishlansagina o‘z ovoziga ega bo‘ladi.

Qalamtasvirda ishlangan portretda ko‘zlar, lablarda nim tabassum kabi murakkab holatlarni berish mumkin. Rangda esa bu portret beligacha yoki qo‘llari bilan, atrof-muhit, fon, liboslari qo‘silib, yuzdagi bu ifoda kuchi kamayib, butunlay boshqa obrazga aylanadi.

Agar qalamtasvirda modelni inson sifatida yuzma-yuz ko‘rsak, rangtasvir portretida bizning ko‘z oldimizda raxbar, olim, talaba jamiyatdagi o‘z o‘rni, undagi mavqe bilan namoyon bo‘ladi. Bunda biz faqat inson yuzini emas, o’sha davrni, ma’lum yurtni, masalan: XVI asrdagi Italiyani yoki XXI asrdagi O‘zbekistonni ko‘ramiz.

Kompozitsiya.

Kompozitsiyaning effektli ifodasi uchun kompozitsiyaning elementi haqidagi tushuncha ilgari surilishi kerak, har bir faktorning tushunchasi orqali ko‘rganlarimizning taasurotlari va ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan shakl harakatini shakllantiradi.

Kompozitsiyaning faktorlari nuqta, chiziq, tekislik, shakl (forma), rang, soya (ranglar), hajmni his qilish, ishlatayotgan materialimizni his qilish, o‘lcham, yo‘nalish, kompozitsiya, illyuziya kabilardir. Biz faktorlarni tushunchamizdagi faktorlar va ko‘z oldimizdagi faktorlar deb qarashimiz mumkin.

Kompozitsiya - nuqta, chiziq, yuza kabi uchta muhim elementlar shaklini o‘zlashtirib, kuzatilishi, albatta, plastikaning birligi va tartibiga ega bo‘lgan psixologik harakatdir. Bunday shakl go‘zalligini hal qiluvchi prinsipini **go‘zallik prinsipi** yoki **shakl (figura) prinsipi** deyiladi. Bu shakl rang, natura, hajm kabi o‘zaro boshqa boshqa elementlarni tekislikda ifodalanganda shakllanadigan shaklni chiroyli va uyg‘un bo‘lishidagi go‘zallik qonunidir. Bu shakl prinsipi tushunchasi estetik

muammo sifatida qadimdan shu kungacha ko‘p narsalarni ko‘rsatib kelgan bo‘lib, uning mazmuni quyidagichadir.



Composition

(Third Version)¹

VII

1) Birlik - birlik bu his qilish yoki real shakl, rang, hajm material hamda texnik jihatdan estetik birlik yoki tartib deganidir.

Uyg‘unlik deb, bir yoki undan ortiq qismlarning o‘zaro munosabatida estetik qimmati jihatidan bir - biridan ajratilmasdan, har bir element birlashganda hosil qiladigan estetik shaklga aytiladi.

2) O‘zgarish - birlikdan ajratib bo‘lmas munosabatdadir. Lekin judayam murakkab o‘zgarishlarda birlik tartib bilan mustaxkamlanmasa, kompozitsiya betartib ko‘rinishga kelib, hatto mavzu ham sustlashib, bu bir xillilik (monotonli) va zamondan ortda qolish kabi oqibatlarga olib keladi.

Proporsiya - kattalik yoki uzunlik o‘rtasidagi farqni bildirib, balans bilan uzviy bog‘liqdir.

3) Balans degani, simmetriyada farq qilib, har tomonlama nosimmetrik shakllarning ko‘rinishi va ruhiy muvozanatdir.

Simmetriya - muvozanat deb ham yuritilib, qarama - qarshi tomonlarda joylashgan barcha nuqtalarning o‘zaro bir xil masofada qo‘llanilishi tartibiga tayanib, birlashtirish xususiyatini beruvchi tushunchadir.

4) Ritm - har bir elementning kuchli yoki zaifligi, shuningdek, ritm davrini hamda davomiy harakatdir.

- Asta - sekin o‘sib borish: asta - sekin o‘zgarib borish yorug‘lik va qorong‘ulik, shuningdek, kombinatsiyaning yorkinlik darajasini ifodalovchi tushunchadir. Asta-sekin oldinga siljish, nuqta deb ham yuritilib, mos keluvchi pog‘onalarga asoslanib, qat’iy tartiblarga ega bo‘lgan tabiiy

¹ Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-167

tartib qoidalarning o‘zaro harakati bilan ifodalanadigan tizim deb ham talqin qilinadi.

- Takrorlash - ajratilgan masofada takrorlanishdir. Oddiy takrorlanish bir xil va oddiy bo‘lsada, davriy takrorlanish o‘zgaruvchan ritm kaytarilganda, jozibador ritm bo‘lib, bunday murakkab davomiy ritmgaga asoslangan takrorlanishni kesishish deb ham ataladi.

5) Urg‘u – atrof - muxitning biror bir shartiga ko‘ra maxsus bir qismiga qattiq o‘zgartirish faktoridir. Lekin urg‘u birdan ortiq berilsa, aksincha urg‘u o‘z kuchini yo‘qotishi mumkin. Urg‘uning kattaligi keragidan ortiq ishlatilmaydi, ya’ni urg‘u berishning ham o‘z chegarasi bor.

- Kontrast - qiyoslash xususiyati va miqdorni ajratib, ikkidan ortiq joy yoki vaqtga nisbatan joylashganda hosil bo‘ladigan birlik shakli, ya’ni shakl yoki rang kabilarga kontrast berish orqali o‘zgarishni amalga oshiruvchi prinsipdir. Rangsiz tasvirda oq va qora rangni qiyoslash shunga misol bo‘la oladi.

3-Mavzu. Tasviriy san’at fanlaridan odam boshi va inson qomati qalamtasviri.

Reja:

1. Tasviriy san’at fanlardan odam boshi va inson qalamtasviri.

2. Inson portreti rangtasviri.

Tayanch tushunchalar: *odam boshi,fiziognomika, inson qomati, portret.*

1. Tasviriy san’at fanlardan odam boshi va inson qalamtasviri.

Inson qiyofasini tasvirlash juda qiziqarli, u insonlar yuzi, a’zolari, tuzilishi, rangi, inson tanasi harakat holatlari, ovozi, kulishi kabilardan uning xarakterini bilishga o‘rgatadi.

Xitoyda, Ovropada inson qiyofasi san’atini fan sifatida qadimdan to shu kunlarga o‘rganib qo‘llab kelayapti, bu fanni fiziognomika⁶¹ nomi bilan yuritadi.

Ajdodlarimiz ma’naviy merosida ota-bobolarimiz bu san’at va ilm bo‘yicha odamlarning qiyofasi belgilarini bilishligini, Arastu, Aflatun,

¹ Xigir B.Yu. Fiziognomika.- M.- S-Peterburg: DILYa, 2000.

Luqmoni Hakim haqidagi hikoyatlarda⁷² ham inson qiyofasiga qarab odamni xarakterini bilish mumkinligi aytilgan.

XV asrda yashab o‘tgan Kamoliddin Xusayin Voiz Koshifiy O‘rtta Osiyo olimlari ichida inson yuzini o‘qish san’ati bilan shug‘ullangan yagona mutafakkirdir. Ulug‘ olimning «Axloqi muhsiniy» asarida aytishicha tishning egri bo‘lmog‘i makru-hiyla, xiyonat, tishning orasi ochiq va silliqligi esaadolat, tadbirkorlik belgisidir. Yuzni go‘shti to‘la va o‘suq bo‘lmog‘i jaholat tezlik belgisidir. So‘z aytish vaqtida qo‘l tebratmoq ziyraklik va tadbirkorlik belgisidir, deyilgan.

Shamsiddin Dunasariyning «Odamni bilish ilmi» risolasida insonning tanasi, a’zolari harakatiga, yuzining tuzilishi va rangiga, nafas olishi, ovozi, hatto kulishiga qarab uning kimligini bilish borasida Sharqda yig‘ilgan kuzatishlar o‘rin olgan. U aytadi: - Agar odamning xulq- atvori, ta’bi, nazokati, shaklu suratini bilsangiz, uning yaxshiyu yomonligini tushuna boshlaysiz. Bu, albatta, hayotda katta naf beradi, sizni balo-qazolardan asraydi. Bu ilmning yo‘llanmasi bilan kishi o‘zining ushbu nuqsonlaridan og‘oh bo‘lib, yomon xislatlaridan kutiladi. Boshqa kishilarning ayblaridan xabar topib, ularning ziyon-zahmatidan salomat bo‘ladi.

Sarkarda, davlat arbobi, huquqshunos, me’mor, ruhshunos Amir Temur ham inson qiyofasini o‘qish san’atini puxta bilgan. U o‘zining butun hayoti davomida ushbu san’at ilmidan juda unumli foydalangan. Uning «Amir Temur o‘g‘itlari» asarida qiyofa ilmidan juda o‘rinli foydalangani hamda bu san’atni o‘rganganini mamnuniyat bilan ta’kidlab o‘tadi: «Samarqand taxtini egallab, azim Movarounnahr bizning hukmimizga kirgach, yurtdaadolat o‘rnatmoqqa axd etdik. Arkonu davlat atrofinda ko‘p nobakor mardumlar in qo‘ymoqchi erdi. Inchunin, ularning zamzamasidan xunob bo‘lib, bir tadbir buyurdim. Musavvir kelgan arzgo‘yning suratini chizib, menga kirlitsin. Arzgo‘yning qiyofasiga boqib, qabulimni aytarmen.

Musavvirlar saroyga kelganlarning suvratin chizib, menga kiritar, arzgo‘yning peshona, burun, dahan, ko‘z va boshqa sifatlariga qarab, uning maqsad va fe’lini oldindan bilib turardim. Badfe’l va xiyonatkorlarni qabulimga yo‘latmaslik harakatida bo‘ldim. Bunda pirim shayx Shamsiddin parrandadan «Ilmi qiyofa» (qiyofaga qarab baho berish va oldindan takdirni bashorat etish) ilmini mukammal egallaganligim g‘oyat ko‘l keldi.

- Sohibqiron, - derdi u kishi, - siz haqsiz. Keyingi umrimda men ko‘p qatori g‘iybat va bo‘htonga ruju ko‘ydim. Ammo ilgari chin ko‘ngil kishi erdim. Naylayki, zamon zayli meni shu ko‘yga soldi. Ortiq chidamshim mushkul. Arzim ham zamona zaylidandur. Fayz beruvchi suhbatingizdan

² Shamsiddin Muhammad ibn Amiruddin Dunasaray. Odamni bilish ilmi. Fors- tojik tilidan B. Omon tarjimasi. - Toshkent: Yozuvchi, 1994. - 3 b.

mahrum etmangiz! Shundan so‘ng qabulga izn berdim. Mulozimlar bu kishini xos xonaga boshlashdi»⁸¹.

O‘zbekiston xalq rassomi akademik Malik Nabiev mashhur Amir Temur portretini yaratishda «Qiyofa ilmi» dan xabardor bo‘lgani juda qo‘l kelganligi haqida shunday deydi:

«...portret chizish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Bu sohada ishlaydigan ijodkor-rassom, avvalo, arxeologiya, tarix, anatomiya (odamning gavda tuzilishi) va qiyofa ilmi fanlarini chukur bilishi kerak. Masalan, men o‘zim plastik anatomiyanı o‘rganish uchun ToshMIga to‘rt yil qatnaganman. Parijda o‘qib kelgan Matveev degan o‘qituvchimiz bo‘lardi. O‘ta zukko, bilimli va tajribali edi. Kabinetida yuzdan ortiq millatning kalla suyaklari terib qo‘yilgan bo‘lib, men u yerda haftalab qolib ketardim. Qosh suyagi erkaklarda bo‘rtib chiqishi, ayollarda tekis bo‘lishini o‘sanda o‘rganganman. Mimika, ya’ni yuz muskullari, albatta, harakatga keladi, qoshi chimiriladi».

Husayn Boyqaroning qabuliga kelganlarni bir ko‘zdan kechirib chiquvchi maxsus olimi bo‘lgan. U dilni xuhton qiladigan, kayfiyatini buzadigan odamlarni shundoqqina yuzidan bilib, uni hech qachon podsho huzuriga qo‘ymas, o‘zi suhabatlashib, jo‘natib yuborarkan.



¹ Amir Temur o‘g‘itlari (to‘plam). Tuzuvchilar: B.Axmedov, A.Aminov.- Toshkent: Navro‘z, 1992. 54-55 b.



Insonning turli emotsional holatlari chunonchi, badanning xilma-xil ifodali harakatlari, imo-ishoralar, xususan, ko‘z bilan qilinadigan imolar, tovushning ohangi, xo‘mrayish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish va boshqa ifodali harakatlar maqsadini hamda uning kimligini ochib beradi.

Masalan, Alisher Navoiy o‘zining «Sab’ai sayyor» dostonida Bahrom obrazini ranglar, ya’ni yetti rang orqali ifoda etadi. Oybekning «Navoiy» tarixiy romani, Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romani, Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi asarlarda Alisher Navoiyning dono, mard va jasur, Andrey Bolkonskiy, bilimdon, o‘ktam yigit Otabek va Mirzo Anvarlarni qiyofasi, ya’ni ko‘zi, qoshi, yuzi, sochi, burni, labi, yuz tuzilishi ifodalar bayoni orqali kitobxonlarda qiziqish uyg‘otadi.

Atoqli rus antropologi D.N.Anuchin aytganidek, «insonning tashqi qiyofa xususiyatlari umri bo‘yi o‘zgarishsiz o‘tadi, faqat ba’zi bir belgilari, bo‘yi, qaddiqomati va badanning ba’zi qismlari o‘lgan jihatidan o‘zgarishi mumkin. Bu o‘zgarishlar nisbiy xarakterga egadir»².

Inson qiyofasining dinamik holatlardan eng xarakterli holati kulgi va yig‘idir. «L.N.Tolstoy o‘z asarlarida odamning ruhiy holatini ifodalovchi nigohlarning 85 xilini va kulishning 97 xilini tasvir etgan.

«Har xil sabab bilan yig‘lagan paytda odamning qoshi va og‘zi har xil qiyofada o‘zgaradi», - degan edi Leonardo da Vinchi.

² Kriminalistika texnikasi. - Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1999.- 157 b.



Bu borada rassom Lui Leopold Buali o‘z asarida o‘ttiz oltita inson yuzini psixologik portretini tasvirlagan. Unda turli his-tuyg‘ularni ifodalovchi ko‘rinishlar – qayg‘u, o‘kinch, achinish, hayratlanish, o‘ychanlik va boshqalar moybo‘yoqda o‘ta mahoratli aks ettirilgan.

Psixolog P.M. Yakobson tomonidan ishlangan rasmlardan ko‘rinib turibdiki, odamning aftidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko‘z o‘zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatiga, shuningdek ko‘zning qanchalik chaqnab turishiga bog‘liqdir»³.

Sharqda qiyofa ilmi bilan shug‘ullanish man etilmagan. Masalan, Muhammad alayhissalomning «Utlub ul-xayri min hison il-vujuh» hadislarini misol qilib olish mumkin bo‘lib, uning mazmuni quyidagicha
«Sizlar yaxshilikni chiroqli yuzlilardan qidiringlar», deganlar.

Haqiqatdan ham chiroqli, ochiq yuzli kishilarning qalbi ham go‘zal bo‘ladi, u dono va aqli bo‘ladi. Inson ikki eshik orasida yashashni boshlar ekan, qancha gunoh ishlar qilar ekan uning qiyofasiga va xatti-harakatiga, albatta, salbiy ta’sir etib o‘z aksini topadi.

Inson kishining axloq-odobi, qolaversa, ichki, ma’naviy olamining qandayligi yuzida bamisolni ko‘zgudagi kabi aks etib turishiga xalq azaldan e’tibor bergen. Masalan, ko‘zning o‘zini olaylik. Yaxshi odamlarning ko‘zlarini porlab



³ Rahmonov M. Psixologiya kursida ko‘rsatmalilik.- Toshkent:
O‘qituvchi, 1981.- 115 b.

turadi, chaqnab turadi, ko‘zlarida sehri bor deyiladi. Shu bois ham go‘zal qizlar qosh-ko‘zları popukdekkina deb tasvirlanadi, yorning ko‘zları charosga qiyoslanadi. Qo‘yko‘z, bo‘tako‘z, ohu ko‘z, shahlo ko‘z, xumor ko‘z degan iboralar bor va hokazo.

Kant ta’limotiga ko‘ra, yuz terisi silliq va tuzilishi mukammal bo‘lgan zo‘r zakovat egasi, daxo bo‘lishi mumkin emas. Men boshqa go‘zallik - bir-biriga qovushmagan nomukammal a’zolar va uqubatlar guvohi bo‘lmish ajinlardan iborat go‘zallik haqida gapirayapman. Eng muhimmi, insonning borlig‘idan quyilib turgan ichki nuri bo‘lsin. Yuzi nur sochmagan odam hech qachon «yulduz» bo‘lomaydi.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo‘lishi lozim, aks holda turli bo‘yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini to‘liq ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog‘liq holda ranglarning nozik o‘zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rangbarang surtmalar ham, o‘z- o‘zidan fazoviy kenglikni ko‘rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to‘g‘ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko‘rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o‘rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta’riflaydi; "Bu 100% qalamtasvir va 100% rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog‘liqligidir".

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o‘rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom qalamdan foydalanmasdan ishni bo‘yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog‘liqligini his etadi. Ya’ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to‘g‘ri qo‘yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko‘p jixatdan ijodkorga bog‘liq.

Rassom qalamtasvirni puxta o‘zlashtirib olgandagina, (qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to‘g‘ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tuslash va x.k.) rangtasvida ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo‘lmashin, baribir bu ishni sifatli deb bo‘lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvoxlik beradiki, ta’limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o‘zlashtirish, keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venesiya o‘qishga kelganida, rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak degan savoliga Tintoretto shunday javob bergen: "Rasm chizish!". Rassom bo‘lish uchun yana qo‘sishma nimalarni maslahat berar edingiz degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: "Rasm chizish va yana rasm chizish!" — rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan.¹

¹ Mastera iskusstva ob iskusstve. M., 1966, T.2, 257-bet.

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) "har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan".

"Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir, — deya ta'kidlagan Sharl Lebren.

Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan "Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir ustasi bo'lib yetishadi".

"Shunday narsa mavjudki, u hamma sanat turlarining asosi hisoblanadi, bu — qalamtasvir. Kimki qalamtasvir sanatini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham, xaykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi," — deb aytgan Karuchchi.

"Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvirdir" — degan Titsian. U qarigan chog'larida ham, ko'mir yoki mel bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo'lмаган.

"Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, sanat emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir", — deya doim takrorlagan rassom V.E. Makovskiy.



"Qalamtasvirni puxta bilmagan, ijod ham qila olmaydi", — deb ta'lim bergen P.P. Chistyakov. I.E. Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan va uni rangtasvirni asosi deb hisoblagan. A.M. Vasnesov, P.P. Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, "uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir" edi, deb eslaydi.

Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida hattoki san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham talim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug' munosabatlar aks etgan tasvir, grizayl), uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning

natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so‘ng ranglar bilan tasvirlashga o‘tilgan.

Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq va sovuq ranglarning o‘zaro hamoxangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko‘pchiligi avvalambor yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P. Bryullov, I.I. Shishkin, V.E. Makovskiy, V.D. Polenov, I.E. Repin, M.A. Vrubel, V.A. Serov, K.A. Korovin, A. Abdullaev, O‘. Tansiqboev, Z. Inog‘omov, M. Nabiev, R. Ahmedov, B. Jalolov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov, I. Xaydarov kabilar kiradi. Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlar muhim o‘rin egallaydi. Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jixatlarni to‘laqonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agarda bu jihatlar mavjud bo‘lmasa, tasvir o‘ta ehtiyyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi.

Rangtasvirda ranglar qalamtasvir bilan uzbviy bog‘liq bo‘lishi zarur. Ya’ni ishni rangda boshlash uchun qalamda naturaning zarur joylarini belgilab olib, shaklning shartli chiziqlarini unutib, ranglar vositasida shakl hajmini tasvirlash darkor.

D.N. Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu - qalamtasvirning rangda davom etishi deb aytsak, shaklning rangda talqin etilishi, qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to‘g‘rulanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallah, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P. Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko‘rib, shunday yozgan: "Rangtasvirning haqiqiy usuli — bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo‘li bilan beriladigan bo‘yoq surtmadir"¹.

Haqqoniy san’atda asosiy badiiy qiyofa, bu qalamtasvirdir. U jism shaklini qayta ishlab chiqadi, voqeа va insonlar haqida ma’lumot beradi. Qalamtasvirda tasavvur, kompozitsiya g‘oyalari mujassamlashgan. Kompozitsiya avvalo qalamtasvirda paydo bo‘ladi (plastik g‘oya) va qayd etiladi. Xattoki, haykaltarosh va me’morlarning dastlabki g‘oyalari qalamtasvirdagi qoralamadan boshlanadi.

Rassomlarda esa plastika haqidagi fikr, kompozitsiya to‘g‘risidagi umumiyligini o‘ylar doimo qalamtasvirda paydo bo‘ladi.

Qalamtasvir san’atining haqiqiy ustasi bo‘lish va uni to‘g‘ri tushunish turli yo‘nalishdagi rassomlarga: grafik rassom, me’mor, saxna bezakchisi, monumentalchi rassom va boshqalarga juda muhimdir. Agar kino yoki teatr rassomi qalamtasvir sir-asrorlarini mukammal egallamagan bo‘lsa, uni haqiqiy ijodkor deb bo‘lmaydi.

¹ P.P. Konchalovskiy. Mysisli o xudojestvennom tvorchestve. M., 1964, 27-bet.

Xattoki, haqqoniy qalamtasvir chizish maktabida tarbiyalangan rassomlar tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratgan ijodiy mahsulining qiymatiga qarab tasviriy, madaniy darajasi qadrlanadi.

Rangtasvirda mohirona ijod qilish uchun yosh shogird rassom qalamtasvirda quyidagi bilim va malakalarni puxta o'zlashtirmog'i lozim:

1. Kuzatuv perspektiva (ufq chizig'i, yassi jismlar va ufq chizig'i perspektivasi) elementlari. Tekisliklar bilan chegaralangan jismlarni konstruktiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, interer va eksterer).

2. Silindr shaklidagi jismlarning perspektiv qurilishi.

3. Geometrik shakllarda soya-yorug' munosabatlari (kub, silindr va shardagi soya-yorug'ning taqsimlanishi, havo perspektivasining elementlari).

4. Qalamtasvirda hajm, fazo va materiallikni tasvirlash usullari (turli materiallarni soya-yorug' xususiyati, tus munosabatlari, hajmni ko'rsatishda chiziq va "shtrix"ni o'rni, fazo va moddiylik).

Qalamtasvirda faqat nazariy bilimlarni mustahkamlab qolmay, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo'lmoq lozim: qo'yilmadagi nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o'zgarishlarni sezalish, tasvirni qog'oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish, shakl hajmini tushayotgan soya-yorug' orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jixatdan yaxlit bir butunlikda yakunlash zarur. Qo'yilmani turli ranglarda bajarish ham mas'uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari yaxlit bir butunlikka asoslanadi. Shakl hajmini tasvirlashda tusning o'rnini to'g'ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi.

Demak eng muhimi qalamtasvirda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlash hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida rangtasvirga o'tishga qulay imkon yaratadi.

2. Inson portreti rangtasviri.

Inson boshini tasvirlash, rassomdan o'ziga xos malaka, o'tkir nigoh va tajriba talab etadi.

Tajribasiz talaba portret ishlashni oson deb o'ylaydi. Naturadan qalamtasvir ishlagach, uni o'ziga yaqin rang tanlab, bo'yab qo'yadi. Natija ko'ngildagidek chiqmaydi. Naturaning tashqi qiyofasida o'xshashlik sezilsada, to'laqonli rangtasvir portreti deb bo'lmaydi.

Portret rangtasvirida talaba butun bilim va mahoratini ishga solib, tasvirlanayotgan shaxsning o'ziga xos psixologik holatini aniq topa bilishi kerak.


Siz jahon tasviriy san'ati tarixidan ko'plab portret janri ustalarini bilasiz. Uyg'onish davrining buyuk rassomlari – Leonardo da Vinci, Rafael, Titsian, Veroneze, Tintoretto kabi buyuk rassomlar ijodi xanuz rangtasvir ixlosmandlarini o'zining nozik portretlarida shaxsning murakkab qalb tug'yonlari ifodasidagi mohirliklariga qoyil qolib, ofarin deydilar.



O‘z davrining taniqli flomand rassomlari – Rubens, Van Deyk, golland rassomlari – Xals, Rembrandtlar o‘zlarining betakror asarlarida tasvirlay oldilar.



XVII asr ispan rassomi Riberaning portretlarida chuqur psixologik ifoda va badiiylik ajralib tursa, XIX-XX asr fransuz rassomlari Renuar va Sezanlarning portretlarida yangi g‘oya va mazmun o‘ziga xos koloritda ifodalangan.



Bundan tashqari bir qancha taniqli rus rassomlari I.Repin, V.Surikov, V.Serov, M.Vrubel kabi rassomlar o‘z zamondoshlarining bebaho portret galereyasini yaratib qoldirgan.

Har bir portretda nafaqat tashqi o‘xshashlik, balki insonning ichki psixologik dunyosini – oqil, tuyg‘uga boy, oljanob xususiyatlarini yuqori badiiylikda, o‘ziga xos uslubda tasvirlay olganlar.

Bizning taniqli o‘zbek musavvirlari ham portret janrida barakali yutuqlarga erishdi.

Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi miniatyurachi rassomlar o‘zbek tasviriy san’atida chuqur iz qoldirgan san’at darg‘alaridan M.Nabiev, A.Abdullaev, R.Axmedov, M.Saidov, M.Oganesov, N.Qo‘ziboev, Ch.Axmarov kabi yetuk rassomlarning portret janridagi izlanishlari nihoyatda bebahodir.

Portretda tugallik – tasvirning yaxlitligi va ifodaligidadir. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, portret ishlashda bildiradigan ushbu fikrlarni tayyor retsept deb qabul qilmaslik kerak.



Faqatgina nazariy bilim bilan savodli tasvir ishlab bo‘lmaydi. Bildirilgan fikrlar – portret ishlashda yo‘l qo‘yiladigan asosiy xatolarning oldini olishga qaratilgandir.

Albatta, portret janrida ijodkor ichki psixologik holatni to‘g‘ri tasvirlashga erishishi uchun yuksak iste’dod, mahorat va katta tajriba kerak bo‘ladi. Portret rangtasvirini o‘rganishda sizga bir qancha tavsiyalar diqqatingizga havola etiladi. Ushbu tavsiyalar mashg‘ulotlarda diqqat va jiddiylik bilan qo‘llanilsa, portret rangtasvirini moybo‘yoqda ishlash sekin-asta ijodiy tus oladi.

Odam boshi va gavda rangtasvirini mukammal ishlash, nazariy hamda amaliy bilimlarni chuqur o‘rganish natijasida hosil bo‘ladi. Ma’lum bir muhitda odam qiyofasining anatomik tuzilishini perspektivada to‘g‘ri tasvirlash hamda tus va rangda aniq ifodalash uchun rassomdan katta tajriba talab etiladi. Misol tariqasida A. Abdullaevning "Yozuvchi Said Axmad" asaridir.



Inson rangtasvirini tasvirlashda ham tasviriy san'atning boshqa janrlaridagi kabi jarayon talab etiladi. Ya'ni, shakl konstruksiyasi nisbatlarni aniqlash, xarakter topish, rangda va tusda ifodalashdir.

Odam boshini tasvirlashda uning anatomiyasini chuqur tahlil etib, ichki psixologik holatini ko'rsata bilish, rangda va tusda yaxlit holatda yakunlash vazifasi yuklatiladi. Talaba inson tanasini tasvirlashda uning rang xarakteristikasi hamda atrof muhit bilan yoritilish holatlarini xaqqoniylashtirish muhimdir.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Maxsus fanlardan odam boshi tasvirlashning asosiy vazifasi?
2. Fiziognomika fani nimani o'rgatadi.
3. Inson kishining axloq-odobi, ichki, ma'naviy olamining qandayligi yuzida bamisolli ko'zgudagi kabi aks etib turishiga tushuncha bering.
4. Inson boshini tasvirlashda rassomdan qanday xususiyatlarni talab etadi.
5. Portret rangtasvirini o'rghanishda qanday tavsiyalarga e'tibor berish kerak.
6. Portretda tugallik deganda fikringizni bayon qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston nashriyoti, 2006.
2. Amir Temur o'g'itlari (to'plam). Tuzuvchilar: B.Axmedov, A.Aminov.- Toshkent: Navro'z, 1992. 54-55 b.
3. Pol Leveyll. Emotsionalnyy portret. Minsk, Popurri, 2000.
4. Xigir B.Yu. Fiziognomika.- M.- S-Peterburg: DILYa, 2000.

4-Mavzu: Tasviriy san'at faoliyatiga polifunksional tayyorgarlikning pedagogik asoslari.

Reja:

1. O'qituvchi, san'atshunos va rassom funksiyalarini bajarishning ilmiy-pedagogik xususiyatlari;
2. Polifunksional tayyorgarlikning asosiy shakllari va takomillashtirish yo'llari,
3. Kvalifikatsion modeli va darajasi.

Tayanch tushunchalar: *O'qituvchi, san'atshunos, rassom funksiyalari, polifunksional, kvalifikatsion modeli.*

1. O'qituvchi, san'atshunos va rassom funksiyalarini bajarishning ilmiy-pedagogik xususiyatlari;

«Ta'lim to'g'risidagi qonun»da «...xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmunini davlat ta'lim standartlari asosida isloq qilinadi» deb ko'rsatilgan.¹

Bu ko'rsatma ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga taalluqli bo'lib u bevosita mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga, uni yangi bosqichga yo'naltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim maktabda, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida u alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ta'lim tizimida tasviriy san'at fanlarida o'qitiladigan qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, san'at tarixi mashg'ulotlarini milliy san'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida milliy san'atdan foydalanish muammolari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan S.Abdullaev, S.Bulatov, B.Boymetov, Q.Qosimov, A.Sulaymonov, N.Tolipov, R.Hasanovlarning² ishlarida mazmunan yoritib berilgan. Milliy badiiy

¹ Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent, 1997, - 34 bet.

² Abdullaev S.F. Teoreticheskie i metodicheskie osnovy ispolzovaniya narodnogo dekorativno-prikladnogo iskusstva Uzbekistana v podgotovke uchiteley izobrazitel'nogo iskusstva. Avtoref..kand. ped. nauk – M., 1989. Boymetov B.B. Osnovy izucheniya natsionalnogo ornamenta i metodika yego obucheniya na xudojestvenno- graficheskem fakultete pedinstitutov. Avtoref..kand. ped. nauk–M., 1992. Bulatov S.S. Psixologo-pedagogicheskie osobennosti formirovaniya umeniy i navyikov vo vneklassnoy rabote. Avtoref. kand. ped. nauk.- M., 1985. Kasimov K. Xudojestvenno-esteticheskoe vospitanie uchashchixsy v protsesse krujkovykh zanyatiy narodnoy rospisyu po derevu v obshcheobrazovatelnykh shkolax Uzbekistana. Avtoref. kand. ped. nauk.- T., 1983. Sulaymonov A. Xudojestvennoe vospitanie starsheklassnikov na zanyatiyakh knijnoy grafiki. Avtoref. diss. kand. ped. nauk. M., 1992. Tolipov N.X. Teoriya i metodika

san'at o'zida ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni aks ettirib talabalarni badiiy bilimlarini kengaytirish bilan birga ularning ijodiy faolligini, milliy tasvirlash san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatini oshiradi, estetik va badiiy didni rivojlantiradi, vatanparvarlik va badiiy mehnat tarbiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Hamdo'stlik mamlakatlari olimlari A.D.Alyoxin va N.M.Molevlar tomonidan rassom va pedagog funksiyasi mazmunining ayrim aspektlari bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Rassom, san'atshunos, pedagog faoliyatlarini mazmuni turli aspektida N.N. Rostovsev, V.S. Kuzin, Ye.V. Shoroxovlarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lim yo'naliishlarida bo'lajak mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda. Mavjud yo'naliishlarda 4 yil davomida tasviriy san'at fanlarining bilim va malakalarini chuqur o'zlashtirib kelmoqda. Albatta, mutaxassislarni kasbiy tayyorlash ancha jiddiy va murakkab jarayondir.

Shu bilan birga «tasviriy san'at» fanlari bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayonining o'zi dinamik tarzda o'zaro bog'liq bo'lgan funksional masalalari ham mavjud. Bu degani bir vaqt o'zida ham rassom, ham san'atshunos, ham pedagog kabilarni funksional jihatdan bir biri bilan o'zaro bog'liq masalani o'z ichiga oladi, biroq bu masala bo'yicha haligacha maxsus ilmiy tadqiqot sifatida izlanishlar yuritilmagan. Albatta, hozirgi kunda ko'pkasbli rassom-san'atshunos-pedagog kadrlarni tayyorlashda katta zaruriyat tug'ilmoqda. Bunday yo'naliishdagi kadrlarni tayyorlash ta'limi tizimidagi muammosining maxsus tadqiqot predmeti sifatida muhim qismi bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarni kasbiy tayyorlarligini kuzatish borasida ma'lum bo'ldiki, agarda ta'limga tizimli va kompleks yondoshuvi qo'llanilsa, ko'pkasbli «rassom-san'atshunos-pedagog» mutaxassisi bo'lishligini ta'minlaydi.

Talabalarni kasbiy tayyorlash tizimida ko'p qirrali tayyorlarlik muhim o'rinni egallaydi. Talabalarning ko'pkasbli tayyorlarligi deyilganda ularning rassomlik, san'atshunoslik va pedagogik vazifalarni bajarilishini nazarda tutadi. Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida tizimli yondashuv qo'llanilishida quyidagi prinsiplarga rioya qilish muhim hisoblanadi.

Milliy badiiy san'atni tizimli o'rganishining ahamiyatini tushunib yetish; materiallarning ketma-ketligini oddiyidan murakkablikka borishini hisobga olish; mutaxassis fanlar o'rtasidagi aloqadorlikka rioya qilish; muntazamlik va ketma-ketlikni hisobga olish, milliy san'atni

xudojestvennogo obrazovaniya uchashchixsyu 1-7 klassov vo vneshkolnykh uchrejdeniyax. Avtoref. diss. kand. ped. nauk.- M., 1994. Xasanov R. Soderjanie, formy i metody xudojestvennogo obrazovaniya i vospitaniya uchashchixsyu v obshcheobrazovatelnykh shkolax Uzbekistana. Avtoref. dokt. ped. nauk. T., 1994.

o‘qitilishini umumbashariy badiiy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda amalga oshirish; san’at materiallarini o‘rgatish tizimida u yoki bu qismidagi qaytarilishliklarga yo‘l qo‘ymaslik.

Ta’lim jarayonida san’atni o‘rganishga tizimli yondoshuvi qo‘llanilishi, talabalarning badiiy bilimlarini chuqurligi va kengligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, tasviriy va badiiy materiallarni o‘rganishda parallelizm va qaytarilishlarni oldini oladi.

Talabalarni ko‘pkasbli tayyorgarlik darajasi bevosita umumta’lim fanlarida olib borilayotgan tashkiliy, nazariy, metodik ishlarni hamkorlikda amalga oshirilishiga bog‘liqdir. Masalan, talabalarni ixtisosligini mazmunan hisobga olgan holda umumta’lim fanlari professor-o‘qituvchilar o‘z leksiyalari, amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etishlari kerak. Faqat shunday tashkil etilgan jarayonda talabalarni funksional tayyorgarligiga samarali hissa qo‘shishlari mumkin.

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishidagi talabalarni kasbiy tayyorgarligini xususiyati shundan iboratki, idrok etish orqali tasviriy san’at asarlarini yaratadi. Grafika, rangtasvir, plakat, haykallar bularning barchasi badiiy ta’limning asosiy vositasi hisoblanadi.

Umuman, tasviriy san’at fanlarini (qalamtasvir, rangtasvir) badiiy ishslash jarayoni uch qismni o‘z ichiga oladi, ularning har biri taalluqli funksiyalar bilan bog‘liqdir. Birinchi qism - rassomlar asar va suratlarini tahlil qilish, u esa san’atshunosning vazifasiga kiradi. Ikkinci qism - qalamchizg‘ilar va suratlarni tasvirlash, bu esa rassom vazifasiga kiradi. Uchinchi qism - o‘quvchilarga rasm chizish turlarini o‘rgatish esa pedagog vazifasiga kiradi. Biroq bu vazifalarning barchasi bir - biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bir - birini to‘ldiradi va boyitib boradi.

2. Polifunksional tayyorgarlikning asosiy shakllari va takomillashtirish yo‘llari,

San’at fakulteti talabalarini san’atshunos, rassom, o‘qituvchi vazifalarini bajarishga tayyorlashni maqsadli tashkil etish yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash tajribasini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tajribasi o‘rganilishi kerak. N. V. Kuzmina, I. T. Ogorodnikov, A. I. Sherbakov, V. A. Slastenin, G. I. Xozyainov va boshqalar ushbu muammoning nazariy tomonini yechimida katta hissa qo‘shdilar. Pedagogik faoliyatni o‘ziga xos tuzilish deb hisoblab, ular uning tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilishadi. Shunday qilib, N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi: konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ va gnostik komponentlar⁹. Ushbu tarkibiy qismlarning har biri bir qator ko‘nikmalar

⁹ Kuzmina N.V. Oryt eksperimentalnogo modelirovaniya deyatelnosti prepodavateley visshey shkoly // Sovremennaya vissshaya shkola, 3 (19), 1997. S. 73-87.

dan iborat. Ushbu yondashuvning rivojlanishini A.I.Sherbakovning o‘z tadqiqotlarida davom etadi, u sanab o‘tilgan tarkibiy qismlardan tashqari zaruriy pedagogik funksiyalarni ham ta’kidlaydi: axborotli, rivojlantiruvchi, yo‘naltiruvchi, mobilizatsiyalashtiruvchi va tadqiqotchilik.¹⁰

V.A. Slastenin zamонавиј о‘qituvchi modelini tuzadi, унга quyidagilar kiradi: shaxsiy va kasbiy-pedagogik fazilatlar; psixologik- pedagogik tayyorgarlikka qo‘yiladigan asosiy talablar; mutaxassislik bo‘yicha metodik mashg‘ulotlarning mazmuni; maxsus mashg‘ulotlarning hajmi va tarkibi.¹¹

G.I.Xozyainov pedagogik faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaydi: nazariy va metodik bilimlar, kasbiy va amaliy ko‘nikmalar; ushbu faoliyat turiga ijobjiy munosabat bildiradi.¹² Tadqiqotlarimizga kelsak, tarkibiy qismlarning har biri o‘ziga xos mazmunga, shaklga ega. Shuning uchun gap nafaqat pedagogik faoliyatning ushbu tarkibiy qismlarini bayon qilish, balki ularning mazmuni va ma’nosini bizning tadqiqotimiz aspektida olib berishdan iborat.

Keling, ularning har birini alohida ko‘rib chiqaylik.

1. **Konstruktiv komponenti** naturadan rasm chizish uchun material tanlashda, mavzu asosida, dekorativ rasmlar, tasviriy san’at haqida suhbatlar, ya’ni, avvalambor, naturadan chizish uchun ob’ektlar yoki hodisalarni tanlash, mavzuli rasm chizish uchun mavzu va syujetni tanlash, dekorativ rasm uchun naqsh va bezaklarni tanlash, suhbatlar o‘tkazish uchun material tanlash haqida. Tanlangan tasvirlash ob’ekti va suhbatlar mazmuni o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchining faoliyati ham, o‘quvchilarning sinfdagi faoliyati ham, tasviriy san’atdagi boshqa ish turlari ham rejallashtirish ishlari amalga oshiriladi.

2. **Tashkiliy komponenti** tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning kollektiv va mustaqil faoliyatini tashkil etish, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik shakllari, shuningdek, rasm chizish yoki suhbatlar jarayonida o‘quvchilarning individual, juftlik, frontal va guruh shakllarini tashkil etishdan iborat.

3. **Kommunikativ komponentni** tasviriy san’at darslarini tashkil etishning turli shakllarida, tasviriy san’atdagi ishlarning sinfdan tashqari shakllarida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘rish mumkin.

¹⁰ Щербаков А.И. Pedagogicheskie osnovy formirovaniya lichnosti uchitelya v sisteme vyshego pedagogicheskogo obrazovaniya. - L.: Prosveshenie, 1997.

¹¹ Slastyonin V.A. Formirovanie lichnosti uchitelya shkoly v protsesse professionalnyy podgotovki. - M.: Prosveschenie 1996.- 160s.

¹² Xozyainov G.I. Pedagogicheskoe masterstvo prepodavatelya. - M.:Vyssshaya shkola, 1988. - 168s. – 20 bet.

4. **Axborot funksiyasi** shundan iboratki, tasviriy san'at o'qituvchisi san'at haqida, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va bu yerda kartina, rasm, haykaltaroshlik haqida ma'lum miqdorda ma'lumot beradi.

5. **Rivojlantiruvchi funksiya** o'quvchilarning ko'rish idrokini, fazoviy fikrlashini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurini, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini rivojlantirishdan iborat.

6. **Yo'naltiruvchi funksiyasi** o'quvchilarda estetik qarashlar, did va hissiyotlarni shakllantirish, tasviriy san'at yordamida go'zallik yaratishda ishtirok etish talabidan iborat.

7. **Mobilizatsion funksiyasi** tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarning qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va umuman san'at haqidagi bilimlarini dolzarblashtirishi, ularning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi, san'atda va hayotda go'zallikka muhabbat tuyg'ularini shakllantirishida namoyon bo'ladi.

8. **Tadqiqiy funksiyasi** tasviriy san'at o'qituvchisidan ilm-fan va san'at o'rtasidagi aloqani, ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va qo'llash va umuman o'z ishini ilmiy tashkil qilishni amalga oshirishni talab qiladi.

9. Tasviriy san'at o'qituvchisining **metodik mahorati** uning o'quvchilarga naturadan va mavzu asosida rasm chizishga o'rgatish qobiliyatida, dekorativ rasmda, tasviriy san'at haqida suhbatlar tashkil etishda namoyon bo'ladi.

10. **Variativ ko'nikmalar** yuqoridagi ko'nikmalarni berilgan shartlar bilan ma'lum bir o'quvchilar guruhi sharoitida amalga oshirishda kuzatish mumkin.

11. **Shaxsiy ko'nikmalar** o'qituvchining aniq o'quvchiga rasm chizishni o'rgatishning o'ziga xos usulini tanlashini o'z ichiga oladi.

12. Tasviriy san'at o'qituvchisining **shaxsiy va kasbiy-pedagogik fazilatlari**: ilmiy dunyoqarashi va g'oyaviy ishonchi; san'atga bo'lgan muhabbat; jamoat burchini va mas'uliyatini anglash; bolalarga bo'lgan muhabbat; o'qituvchilik ishiga qiziqish; tasviriy san'at sohasidagi bilim va ijodga bo'lgan ehtiyoj.

13. Psixologik-pedagogik tayyorgarlikka qo'yiladigan asosiy talablar: maktab pedagogikasi va umumiyyet pedagogikasini bilish; turli yoshdagi bolalarning yoshi va anatomik-fiziologik rivojlanishining asosiy qonunlarini bilish; tasviriy san'at darslarining turli shakllarida pedagogik vaziyatlarni rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish.

14. Maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuni: san'atning mohiyati, tasviriy san'at turlari va janrlari to'g'risida bilim; tasviriy san'at tarixi; qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslarini bilish.

15. Mutaxassislik bo'yicha **metodik tayyorgarlikning** mazmuni: hozirgi bosqichda tasviriy san'atni o'qitishning maqsad va vazifalarini bilish; tasviriy san'atning o'quv rejali, o'quv dasturlari, darsliklar va

o‘quv qo‘llanmalarni bilish; qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyani o‘qitish metodikasining nazariy asoslarini bilish, o‘quvchilarni tasviriy san’at bilan tanishtirishda qiyinchiliklarni yengish bilim va malakalarini hosil qilish.

16. Ushbu faoliyat turiga ijobiy munosabat bildirish - bu tasviriy san’atni sevish, rasm chizishga, bolalar bilan ishslashga, kasbga sadoqatdir. Bu maktab tasviriy san’at o‘qituvchisi faoliyatining tarkibiy qismlari, uning ixtisosligi "san’atshunos-rassom-o‘qituvchi". Ular, shuningdek, San’at fakulteti bitiruvchisini kasbiy tayyorlashning tarkibiy qismidir.

3. Kvalifikatsion modeli va darajasi.

O.A. Abdulin, N.V. Kuzmin, V.A. Slastyoninlarning ilmiy tadqiqot ishlari asosida hamda modellashtirish va shaklga tushirish metodlarini qo‘llash borasida tasviriy san’at fanlarini mutaxassislarga taalluqli kasbiy funksional darajasini zamonaviy modeli loyihalashtirildi. (1- jadval).

Tasviriy san’at fani o‘qituvchisining zamonaviy modeli

1- jadval

Талабаларни касбий фаолиятига тайёргарлик даражасини замонавий модели												
Санъатшунослик вазифаси					Рассомлик вазифаси			Педагогик вазифаси				
Санъатшунослик билим ва малакалари					Тасвирилашнинг билим ва малакалари			Педагогик билим ва малакалар				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Санъатнинг моҳиятини билиш	Тасвирий санъат тур ва жанрларини	Санъат тарихини билиш	Санъат асарларини бадиий таҳлил килиш	Малакаси	Натурага қараб тасвирилани малакаси	Ранглар билан ишлаш малакаси	Сюжетни композиция тузиш малакаси	Каламтасвир машғулотларини таҳлил килиш	Рангтасвир машғулотларини таҳлил килиш, ташкил этиши ва режалаштириш	Композиция машғулотларини таҳлил килиш, ташкил этиши ва режалаштириш	Санъат тарихи машғулотларини таҳлил килиш, ташкил этиши ва режалаштириш	Ҳайкалтарошлик машғулотларини таҳлил килиш, ташкил этиши ва

Bu jadval asosida talabalar u yoki bu vazifalarni bajarish borasida qanday bilim va malakalarni o'zlashtirish zarur ekanligini bilib olishadi. Shuningdek, bu model asosida talabalarni alohida kasbiy vazifalari bilan birgalikda ularni kasbiy pedagog faoliyatini bajarishi borasida qanchalik

tayyorgarlik darajasini aniqlash ham mumkin.

Shunday qilib, mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darjasini o'zlashtiradigan malakalar soni jihatdan baholanib, keyin uning yig'indisi natijasida, albatta, ma'lum sifatni ham tashkil etadi.

Mazkur modelning asosini talabalar tashkil etib, avvalom bor shaxs sifatida:

1. yuksak ma'naviyatli va madaniyatli;
2. uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir;
3. ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri oladigan;
4. o'zida milliy istiqlol g'oyalarini singdirgan;
5. jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan.

Yuqori malakali raqobatbardosh **san'atshunos** kadr sifatida:

1. San'atning mohiyatini bilish – san'atni jamiyat ongini aks etish shakllari kabi bilish; hayotdagi san'at o'rmini bilish; san'atni ilm, din, mifologiya bilan bog'liqligini bilish.

2. Tasviriylarini bilish – musiqani bilish; adabiyotni bilish; kinoni bilish; tasviriylarini bilish; a) grafika; b) rangtasvir; v) haykaltaroshlik; g) amaliy san'at; d) me'morchilik. Rangtasvir: moybo'yoq, tempera, guash, akvarel, pastel, mahobatli, dastgohli, dekorativ. Rangtasvir-grafika-haykaltaroshlik: animalistik, manzarali, portretli, maishiy, tarixiy, batal, natyurmort, karikatura va boshqa janrlar.

3. Tasviriylarini tarixini bilish – jamiyatni ongini aks etish shakli kabi san'atning paydo bo'lishini sababi va ijtimoyi zaruriyati; tasviriylarini rivojlanishini asosiy bosqichlarini umumiylashtirish; tasviriylarini Uyg'onish davrini mukammal bilish; o'zbekiston tasviriylarini tarixini chuqr bilish; dunyo taniqli buyuk rassomlarni hayot va faoliyatini bilish.

4. San'at asarlarni badiiy tahlil qilish malakasi – dunyoviy tasviriylarini bilish; rasm va asarlarning mazmuni va shaklini og'zaki vositalar orqali izohlash va tushunarli bo'lmagan narsalarni anglab tushuntirish malakasiga ega bo'lish; asarni g'oyaviy mazmunini tushuntirib berish malakasiga ega bo'lish.

5. Tasviriylarini haqida dokladlar uyuşdırish malakasini hosil qilish – tasviriylarini shaxslari va alohida mavzular bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlar bibliografiyasini tuzish malakasiga ega bo'lish; haykaltaroshlik asarlari va tasviriylarini rasmlari reproduksiya-larining kolleksiyalash, shuningdek (davr, maktab, yo'nalishlar bo'yicha va

h.k.) albomlar to‘plash malakasiga ega bo‘lish; tasviriy san’at asarlar materiallarini izohlab berish malakasiga ega bo‘lish; san’atshunoslikdan egallagan bilimlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qilish malakasiga ega bo‘lish.

Rassom kadri sifatida:

1. Naturaga qarab tasvirlash malakasi – narsalar va hodisalarni to‘g‘ri kuzatish malakasiga ega bo‘lish; narsa va hodisalarni ilmiy bilish; qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyalarni ilmiy asoslarini bilish; tasvirlash metodlarini bilish va ularni ishlash texnikasini egallah; hayotda ko‘rimsiz va go‘zallikni ko‘ra bilish malakasiga ega bo‘lish.

2. Ranglar bilan ishlash malakasi – ranglar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; ranglar hosil qilish malakasiga ega bo‘lish; ranglarni ilmiy asoslarini bilish; ranglar bilan tasvirlash metodlarini bilish va ularni ishlash texnikasini egallah;

3. Syujetli kompozitsiya tuzish malakasi – tavsiya etilayotgan mavzularni g‘oyaviy mazmunini anglab yetish malakasiga ega bo‘lish; mavzuli sharoitdagi ko‘rinishda go‘zallik va ko‘rimsizlikni ajrata bilish malakasiga ega bo‘lish; qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyalarni ilmiy- metodik asoslariga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; musiqiy, adabiy, tarixiy asarlarni illyustratsiyani ishlash malakasiga ega bo‘lish.

Rassom-o‘qituvchi kadri sifatida:

1. Qalamtasvir mashg‘ulotlarini tahlil qilish, tashkil etish va rejalashtirish malakasi - o‘quv metodik qo‘llanma, darsliklar materiallari va dasturlar asosida tuzilgan kalendar rejasi bo‘yicha qalamtasvir mashg‘ulotlarini konspekt-rejasini tuzish malakasiga ega bo‘lish; naturadan tasvirlash mashg‘ulotlar jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarini naturadan tasvirlashga o‘rgatish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarining rasmlarini metodik jihatdan to‘g‘ri baholash malakasiga ega bo‘lish; naturadan tasvirlashda o‘quvchilar tomonidan yuzaga kelgan hatolarni metodik jihatdan to‘g‘ri tuzatish kiritish malakasiga ega bo‘lish

2. Rangtasvir mashg‘ulotlarini tahlil qilish, tashkil etish va rejalashtirish malakasi - o‘quv metodik qo‘llanma, darsliklar materiallari va dasturlar asosida tuzilgan kalendar rejasi bo‘yicha rangtasvir mashg‘ulotlarini konspekt-rejasini tuzish malakasiga ega bo‘lish; naturadan tasvirlash mashg‘ulotlarida didaktik prinsiplarga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarini naturadan tasvirlashda ranglar bilan ishlashga o‘rgatish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarining ishlarini metodik jihatdan to‘g‘ri baholash malakasiga ega bo‘lish; naturadan tasvirlashda o‘quvchilar tomonidan yuzaga kelgan hatolarni metodik jihatdan to‘g‘ri tuzatish kiritish malakasiga ega bo‘lish

3. Kompozitsiya mashg‘ulotlarini tahlil qilish, tashkil etish va rejalashtirish malakasi - o‘quv metodik qo‘llanma, darsliklar materiallari va dasturlar asosida tuzilgan kalendar rejasi bo‘yicha

kompozitsiya mashg‘ulotlarini konspekt-rejasini tuzish malakasiga ega bo‘lish; mavzuni, g‘oyaviy mazmunni shakllantirish, syujetni tanlash malakasiga ega bo‘lish; kompozitsiya mashg‘ulotlari jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarni adabiyot, musiqa, tarix asarlarini illyustratsiya ishslashni o‘rgatish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarning kompozitsiya oid rasmlarini metodik jihatdan to‘g‘ri baholash malakasiga ega bo‘lish.

4. San’at tarixi mashg‘ulotlarini tahlil qilish, tashkil etish va rejelashtirish malakasi - o‘quv metodik qo‘llanma, darslik materiallari va dasturlar asosida tuzilgan kalendar rejası bo‘yicha tasviriy san’at haqida suhbat mashg‘ulotlarini konspekt-rejasini tuzish malakasiga ega bo‘lish; suhbat o‘tkazish mavzulari bo‘yicha savollarni shakllantirish malakasiga ega bo‘lish; tasviriy san’at haqida suhbat mashg‘ulotlarida didaktik prinsiplarga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; san’atshunoslik bilimlar orqali o‘quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish malakasiga ega bo‘lish; tasviriy san’at haqida o‘tkazilgan suhbat mashg‘ulotlarini yakunini chiqarish malakasiga ega bo‘lish; tasviriy san’at galereyasi, ko‘rgazma zallari va muzeilarga sayohat uyuştirishini rejelashtirish, tashkil eti shva tahlil qilish malakasiga ega bo‘lish.

5. Haykaltaroshlik mashg‘ulotlarini tahlil qilish, tashkil etish va rejelashtirish malakasi - o‘quv metodik qo‘llanma, darslik materiallari va dasturlar asosida tuzilgan kalendar rejası bo‘yicha haykaltaroshlik mashg‘ulotlarini konspekt-rejasini tuzish malakasiga ega bo‘lish; haykal yasash mashg‘ulotlari jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarni plastilin yoki loydan buyumlarni yasashga o‘rgatish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilar yasagan haykal buyumlarini metodik jihatdan to‘g‘ri baholash malakasiga ega bo‘lish; haykal yasashda o‘quvchilar tomonidan yuzaga kelgan hatolarni metodik jihatdan to‘g‘ri tuzatish kiritish malakasiga ega bo‘lish.

Ko‘pkasbli mutaxassislarni o‘qitish jarayonida nafaqat ularni nazariy bilimlar tayyorgarligi, amaliy o‘zlashtirgan malaka va ko‘nikmalar ham muhim o‘rinni egallaydi, ma’lumki nazariya amaliyotsiz o‘z hayotiy ma’nosini yo‘qotadi. Shuning uchun ham talabalarning amaliy jarayoniga alohida ahamiyat beriladi. Demak, tasviriy san’at fanlari bo‘yicha sifatli mutaxassislar talab darajasida bo‘lishiga e’tibor bersak, san’atshunoslik vazifasini bajarish uchun - muzey amaliyoti, rassomlik vazifasini o‘tash uchun – dala amaliyoti, va so‘ngida, o‘qituvchilik vazifasini bajarish uchun – pedagogik amaliyotini rejelashtirish kerak bo‘ladi.

2- jadval

San’atshunoslik vazifasi	Rassomlik vazifasi	Pedagogik vazifasi
San’atshunos - amaliyotchi	Rassom- amaliyotchi	Pedagogik-amaliyotchi

Muzey amaliyoti

Tasviriy san'at galereyasi, muzeyilar, ko'rgazma zallariga sayohat; rasm va asarlarni tahlili; taniqli rassomlar faoliyati va hayot haqida hikoyalar; tasviriy san'at oqim va yo'nalishlari; tasviriy san'atdan dokladlar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlar bajarish.

Dala amaliyoti

Naturadan qisqa vaqtli ranglavhalar, qalamchizg'ilar ishlash maqsadida tabiatga; tog'li joylarga; madaniy tarixiy obidalarga; bitiruv mala-kaviy ishlari uchun eskizlar tayyorlash

Pedagogik amaliyot

Qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik va san'at tarixi mashg'ulotlari. o'quvchilar va amaliyotchilarni rasm va etyudlarini ko'rgazmasi va konkursini tashkil etish; tasviriy san'at to'garaklariga rahbarlik qilish; pedagogika va psixologiya, tasviriy san'at o'qitish metodikidan dokladlar, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlar.

Kompleksli va tizimli yondoshuv hamda modellashtirish metodlarini qo'llanilishi asosida san'atshunos-rassom-pedagog kasbiy tayyorgarligini asosiy darajasini aniqlash mumkin bo'ladi. Har birini alohida kasbiy tayyorgarligi darajasini qoniqarli, yaxshi va yuqori ko'rsatgichlar bilan baholab mezonlar bo'yicha natijalarini ko'rish mumkin.

Mutaxassis kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limi muassasalari talabalarini shakllantirish maqsadida ilmiy-metodik asosini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Tadqiq etilayotgan muammoda «kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilmiy-metodik tayyorgarligiga qo'yilgan talablarga javob beradigan, shuningdek, dasturning hozirgi bosqichdagi vazifalarini amalga oshirishga qodir, umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mo'ljalni mustaqil ravishda to'g'ri olish mahoratiga ega bo'lgan o'quvchi-talabalarni shakllantirish kuzda tutiladi.

Tasviriy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish ko'p jihatdan talabalarning malakasiga, xususan, savodli rasm chizishga, ravon so'zlashiga, didaktik materiallardan unumli foydalana olish va tasviriy san'at asarlarini chuqur tahlil qila olish saviyasiga bog'liqdir. Bu borada tasviriy san'at fanlari o'qituvchilari quyidagi shartlarga qat'iy amal qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Tasviriy san'at sohasidagi pedagogik texnologiya asoslari, maqsadi, mohiyati va vazifalari borasida chuqur nazariy bilimlar berish.

2. Talabalarning nazariy va amaliy bilim darajasini talabga muvofiqligi baholab beruvchi maxsus tekshirish, reyting, test, tanlov, ko‘rik va ko‘rgazmalar tashkil etish.

3. Ta’limni ijodiy tashkil etish va texnologik yondashuv nuqtai nazaridan zarur shart-sharoitlar (maxsus o‘quv xonasi, molbert, dastgoh, videotasvirlar, internetga ulangan) yaratish.

4. Ilg‘or pedagogik tajribalarga tayanish (muntazam rassom ustaxonasi va san’at muzeylariga tashrif), Respublika doirasida o‘tkazilayotgan yirik ko‘rgazmalarda qatnashish va san’at asarlarini tahlil qilish.

5. San’at sohasidagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida yaratilayogan ilmiy yangiliklar, ularning salohiyati va texnologik qurilmalari bilan yaqindan tanishish.

NAZORAT SAVOLLARI.

1.O‘qituvchi, san’atshunos va rassom funksiyalarini bajarishning ilmiy-pedagogik xususiyatlari.

2.Polifunksional tayyorgarlikning asosiy shakllari va takomillashtirish yo‘llari.

3.Kvalifikatsion modeli va darajasi.

4.O‘qituvchi, san’atshunos va rassom funksiyalari fikringizni bayon qiling.

5.Polifunksional tayyorgarlikning takomillashtirish yo‘llarining roli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Popelyuxina A.I. Sistema xudojestvenno-pedagogicheskoy podgotovki uchiteley nachalnyix klassov: Avtoref. dis. kand. ped. nauk. M.,2010.

2. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. -T.: O‘qituvchi-Ziyo-Noshir, 2001

5-mavzu. Badiiy ta’limning zamonaviy ko‘pbosqichli tizimining didaktik asoslari

Reja:

1. Badiiy ta’lim jarayonida didaktik prinsiplarni amalgaloshirishning o‘ziga xosligi

2. Badiiy ijodning har xil turlarini o‘qitish jarayonida klassik didaktika usullarini talqin qilish

3. Zamonaviy ko‘pbosqichli kasbiy badiiy ta’lim tizimi

Tayanch tushunchalar: *didaktik prinsiplar, bakalavr, magistr, ko‘pbosqichli.*

1. Badiiy ta’lim jarayonida didaktik prinsiplarni amalga oshirishning o‘ziga xosligi

Badiiy ijod amaliyoti bilan bir qatorda tasviriy san’at nazariyasi va tarixini o‘qitish jarayonida klassik didaktikaning barcha tamoyillari hisobga olinishi va amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, artpedagogika aksariyat didaktik prinsiplarni o‘ziga xos, o‘ziga xos tushunishi va qo‘llanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu o‘ziga xoslikni bilmaslik ko‘pincha odatdagি pedagogik xatolarga olib keladi.

Artpedagogikada **ilmiy tamoyili** san’atshunoslarning ijodiy tasavvurlari bilan yoki shunchaki rivoyatlar, afsonalar yoki tarixiy latifalar tarzida bizgacha yetib kelgan ushbu faktlar asosida yaratilgan ishonchli ilmiy tadqiqot metodlari va badiiy obrazlar yordamida olingan faktlarni o‘zaro bog‘lashni va ba’zan taqqoslashni talab qiladi.

Masalan, nazariya va amaliyotning birligi prinsipi bir necha o‘lchamlarda amalga oshirilishi mumkin:

- san’at tarixida muammolarni hal qilish evolyusiyasi orqali;
- muayyan ustanning ijodidagi muammoni anglash tarixi orqali;
- o‘qituvchining ijodiy tajribasi orqali;
- talabaning shaxsiy tajribasi orqali.

Qanday bo‘lmasin, talaba o‘zlashtirilayotgan materialni o‘zining ijodiy jarayoni uchun foydasini ko‘rishi va tushunishi kerak.

San’atni o‘qitishda **tizimlilik va izchillik tamoyili** aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishga qaraganda boshqacha tarzda amalga oshiriladi.

Fanlarni o‘qitishda u chiziqli ravishda amalga oshiriladi. Bu ratsional mazmuni bosqichma-bosqich murakkablashuvi bilan ta’minlanadi. O‘quv materialini assimilyatsiya qilishning kuchliligi allaqachon o‘zlashtirilgan mavzularga qaytishni istisno qilishga imkon beradi.

San’atni o‘qitishda ushbu prinsip siklik(davriy) tarzda amalga oshiriladi: bir xil materialga qaytish (masalan, san’at asarlariga) shaxsiy o‘sish va rivojlanishning har bir yangi bosqichida maqsadga muvofiq va hatto zarurdir. Shu bilan birga, talabaning qulayroq idrok etishi va mustaqil talqin qilishi uchun mo‘ljallab, asarning hissiy va estetik xususiyatlari murakkablashtiriladi,

Artpedagogikada **tushunararlilik tamoyili** ham ko‘p qirrali tushuniladi. Intellektual va hissiy darajadagi kirish imkoniyati o‘rtasida farq bo‘lishi kerak: material talabaning hissiy tajribasi darajasiga mos kelishi kerak.

Masalan (ijobiy va salbiy misollarni keltirish mumkin):

Ko‘rgazmalilik tamoyili artpedagogikaning barcha jarayonlarida juda faol qo‘llaniladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar nafaqat ko‘rgazmalining barcha turlari - vizual, eshitish, audio-vizual, taktil, organoleptiklardan foydalanadilar, balki sinergiya samarasiga erishishga intilib, turli xil ko‘rgazmalilikning turlarini birlashtirishga intilishadi.

Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili chuqur tahlil ishlarini talab qiladi, shuni yodda tutish kerakki, boy estetik tajriba, shu jumladan jahon badiiy madaniyatining yuksak namunalarini hissiy va ijodiy rivojlantirish o‘quvchilarga tezlashtirilgan shaxsiy shakllanishini ta’minlaydi. Va - aksincha - sifatli estetik tajribaning etishmasligi san’atni idrok qilishda infantilizmga olib keladi.

Eslatib o‘tamiz, art-o‘qituvchisining eng muhim vazifalaridan biri bu o‘quvchining ijodiy individualligini aniqlash va uning individualligini o‘zida ijodiy aks ettirish uchun talabani yetarli darajada adekvat ifodaviy vositalar bilan qurollantirish.

Ta’lim **onglilik va faollilik tamoyili** bilan ham bog‘liqdir. Ijodiy o‘zini namoyon qilishning qanday usullari “unga mos”, tushunadigan talaba ijodiy muvaffaqiyat tuyg‘usini boshdan kechira oladi, bu esa o‘z navbatida keyingi ijodiy faoliyat uchun kuchli rag‘batdir.

2. Badiiy ijodning har xil turlarini o‘qitish jarayonida klassik didaktika usullarini talqin qilish

Artpedagogikada o‘qitish metodlarining turli tasniflarining dolzarbliji, avvalo, ijodiy jarayonning xususiyatiga, shuningdek mashg‘ulot- ning ma’lum bir bosqichida rejalashtirilgan ta’lim, rivojlanish va didaktik vazifalarga bog‘liqdir.

- Verbal metodlar – aql-idrokga yo‘naltirilgan; aks ettirishni rivojlanish;
- Ko‘rgazmali metodlar - hissiy sohaga qaratilgan, fazoviy fikrlashni rivojlanadir;
- Amaliy metodlar - ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Reproduktiv metodlar o‘qituvchining harakatlari va hukmlarini takrorlaydi; aniq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda juda kerakli;
- Muammoli-qidiruv yoki evristik metodlar mavjud namunalar (kashfiyotlar, ixtiolar, asarlar) asosida ilmiy yoki ijodiy izlash jarayonini sub’ektiv ravishda modellashtirish;
- Ijodiy metodlar talabalarni tadqiqot, ixtiro yoki badiiy-ijodiy faoliyat sohasidagi haqiqiy ijodkorlik jarayoniga jalb qiladi.

An’anaga ko‘ra, badiiy-ijodiy faoliyatning eng muhim malaka va ko‘nikmalari o‘qituvchi va talabaning bevosita o‘zaro ta’siri jarayonida uzatiladi, chunki faqat shu yo‘l ijodkorning barcha xususiyatlari va nyuanslarini ko‘rishga imkon beradi. Bu artpedagogikaning uzlusiz xususiyati: ijodiy ko‘nikmalarni “qo‘ldan qo‘lga” o‘tkazish, bu ijodiy mакtablarning hayotini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonining zamонавиј техник jihozlanishi bir qator o‘quv jarayonlarini faollashtirishga imkon beradi. Masalan, ijodiy jarayon elementlarini audio va video yozib olish yutuqlarni ham, xatolarni ham tez

va hatto uzoqdan tahlil qilishga imkon beradi va shu bilan professional aks ettirishni rivojlantiradi.

3. Zamonaviy ko‘pbosqichli kasbiy badiiy ta’lim tizimi

O‘zbekiston yevropaning yagona ta’lim jarayoniga kirishi munosabati bilan har yili ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar, magistrlar, fan nomzodlari va fan doktorlarni chiqaradigan ko‘pbosqichli oliy kasbiy ta’lim tizimi yaratildi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Asosiy ta’lim dasturi ikkita tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi: bakalavr malakasini (4 yil) va magistrlik malakasini (2 yil). Ta’limning keyingi bosqichi - 2 ta tayyorgarlik darajasi: aspirantura (3 yil) va doktorantura (2 yil). Ko‘pbosqichli tizim yevropa ta’limiga mos keladi va talabaga mustaqil ravishda ta’lim yo‘lini tanlashga imkon beradi. Ko‘pbosqichli tizimning uzlusizligi va ochiqligi boshqa fakultetlarda, universitetlarda tahsil olgan talabalarga tanlov asosida turli bosqichlarda kirish imkoniyatini beradi.

San’at fakulteti bakalavrini tayyorlashning bir qator profili ochilgan: Tasviriy san’at, dizayn va kompyuter grafikasi, amaliy san’at, muzey pedagogikasi. Ta’lim yo‘nalishlarini individual rejalashtirish ta’minlanadi: 2yil davomida talabalar asosiy umumiy kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan umumiy dastur asosida o‘qiydilar; keyin ular ixtisoslashuv profillaridan birini tanlaydilar - tasviriy san’at yoki amaliy bezak san’ati. Badiiy ijodkorlikdagi amaliy mashg‘ulotlar nazariy fanlar bilan uzviy ravishda birlashtirilgan: masalan, tasviriy san’at bakalavrlari qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, kompyuter grafikasi, amaliy bezak san’ati (batik, gobelen, kulolchilik va boshqalar), perspektiva, plastik anatomiya, rangshunoslik, tasviriy san’at tarixi, badiiy madaniyat, pedagogika, psixologiya, ta’lim tarixi; o‘quv va tadqiqot amaliyotidan (2 ta shakl - muzeylarda o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqot amaliyoti va plener) va ishlab chiqarish pedagogik amaliyotidan o‘tadilar.

Fakultetda 10ta magistrlik dasturi mavjud: Rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik, akademqalamtasvir va rangtasvir, dizayn va kompyuter grafikasi, amaliy bezak san’at, muzey pedagogikasi, badiiy ta’lim, san’atshunoslik, badiiy ta’lim sohasidagi axborot texnologiyalari. Magistraturada o‘quv jarayoni ijodiy ustaxonalar va ilmiy maktablar prinsipiqa muvofiq amalga oshiriladi. Shunday qilib, ikkita ijodiy rasm chizish ustaxonasi tashkil etildi: prof. V.A. Ledneva o‘zining tezisi sifatida portretlar, natyurmortlar, manzaralar yaratishga qaratilgan; prof. V.A. Litvinov ustaxonasi - janrli va tarixiy kartinalarni, interer uchun dekorativ pannolarni tayyorlash.

Magistrlar kundalik amaliy mashg‘ulotlardan tashqari (qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, amaliy san’at va boshqalar) va jonli modelni (portret, yalang‘och qomat va h.k.) puxta o‘rganishdan tashqari, san’at tarixi va

san'at pedagogikasi sohasida ilmiy ish olib boradi (ilmiy maqolalar, insholar yozish, sharhlar, konferensiyalarda ma'ruzalar qilish). O'qituvchilar, magistrlar va bakalavrлarning ilmiy ishlari to'plami har yili nashr etiladi.

Talabalarning ijodiy ishlari Sankt-Peterburgda va Rossiya, AQSh, Belgiya, Shvesiya, Finlyandiyada bo'lib o'tadigan xalqaro ko'rgazmalarda qatnashadi, "Sankt-Peterburg" nufuzli tanloving grantlari bilan taqdirlanadi. Ko'rgazma zalida eng iste'dodli talabalar ishlarining shaxsiy ko'rgazmalarini an'anaga aylanadi.

Universitetda 3ta mutaxassislik bo'yicha PhD nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha dissertatsiya kengashi mavjud: 13.00.02 – o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va metodikasi (tasviriy va dekorativ san'at, umumiy va kasb-hunar ta'limi darajalari), 13.00.01 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va tarixi.

Ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar bir necha yo'naliishlarda olib borilmoqda: 1) talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash uchun kredit tizimini joriy etish (Boloniya jarayoni sharoitida); 2) sirtqi ta'lim uchun masofadan o'qitishni joriy etish; 3) xalqaro ilmiy ishlar to'plamlarini, o'quv qo'llanmalarini, diplom va o'quv ishlari albomlarini ishlab chiqish va nashr etish.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida, mamlakatimizda qayta qurish boshlandi. Bu nafaqat mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy hayotiga ta'sir qildi, balki oliy va o'rta ta'lim muassasalarini isloh qilishni ham talab qildi.

Universitet ta'limini qayta qurish yo'llarini qisqacha eslaymiz: kasbiylashtirish, ta'limni kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, talabalarning mustaqil ishi rolini oshirish va ta'limni individualizatsiya qilish.

Kasbiylashtirishda ta'lim, ishlab chiqarish va ilm-fanni integratsiya orqali amalga oshirilishi kerak. Universitet o'qituvchilariga asosiy talablardan biri – ilmiytadqiqot ishlarida qatnashish taklif qilindi. Bu o'qituvchilarining kasbiy o'sishi uchun ham talab, ham shartdir, ya'ni, o'qituvchi izlanishlar bilan va tadqiqotishlar bilan o'qitish orqali ta'lim berish kerak. Bundan tashqari, o'sha davr g'oyalariga ko'ra talabalarning mehnat brigadalarini kasbiy ta'limning perspektiv shakli sifatida kengroq foydalanishi kerak.

Ta'limni kompyuterlashtirishga katta umidlar bog'landi, shuning uchun 1985 yilda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilar o'rtasida kompyuter savodsizligini yo'q qilish masalasi ko'tarildi. Universitetlar va maktablar kompyuter uskunalarini bilan ta'minlandi, kompyuter markazlari modernizatsiya qilindi.

Mamlakatning jadal sanoatlashuvi, o'zi progressiv bo'lib, texnokratik fikrlashning hukmronligiga olib keldi va bu atrof-muhitga

katta zarar yetkazdi. O. Doljenko bilan quyidagilarga qo'shilmaslik mumkin emas:

"... nima ustida o'yash kerak bo'lgan narsa bor: yangi va zamonaviy davrlarda oliy ma'lumot nafaqat hayotga muhabbat, oljanoblik va fikrlarning pokligi, balki zo'ravonlik, nafrat va halokatni sevishni ham keltirib chiqaradi".

Shu sababli, ta'limni insonparvarlashtirish yo'li taklif etilishi bejiz emas edi. Gravitatsiya markazini tor kasbiylashtirishdan ta'limni insonparvarlashtirish va fundamentalizatsiyalashga asoslangan ta'limga o'tkazish kerak degan fikr bor edi. Ta'limni insonparvarlashtirish uchun gumanitar fanlar bo'yicha ma'ruzalar (axloq, estetika, qadimgi dunyo san'ati va boshqalar) kiritildi, gumanitar fanlarning butun blokini o'rganish talablari qayta ko'rib chiqildi. Ammo gap insonparvarlik fanlari sonini ko'paytirishda emas, ya'ni ta'limni ijtimoiylashtirishda emas, balki ta'limni insonparvarlashtirishda. Insonparvarlashtirish va ijtimoiy-lashtirishning mohiyati va qiymati yosh mutaxassislarning axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishdir.

Demak, ta'limning mohiyati ma'lum bir talabaga yo'naltirilgan bo'lib, uning qobiliyatiga mos ravishda oliy ma'lumot olish yo'llarini tanlash imkoniyatidan mahrum bo'lib, talabalarning bilish faoliyati past darajada qoldi. Shuning uchun, yangi konsepsiya 1992 yilda paydo bo'ldi:

"Oliy ta'limning konsepsiysi, shu jumladan fundamentalizatsiya va ijtimoiylashtirish asosida tarkib topgan tarkibiy qismni qayta ko'rib chiqish va uning tarkibiy qismi - ko'pbosqichli ta'lim tizimiga o'tish."

Oliy ta'limning ko'pbosqichli tizimining maqsadi - shaxs va jamiyatning turli madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishda oliy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish. Ilgari, esingizda bo'lsa, birinchi navbatda jamiyat va ijtimoiy tartib edi. Endi buni "Ta'lim to'g'risida qonun"dan ko'rish mumkin, inson va uning manfaatlari birinchi o'ringa chiqmoqda.

Mamlakatimizda ko'pbosqichli ta'lim tizimining mohiyati shundan iboratki, u turli darajalar, davomiylilik va maqsadlarga mo'ljallangan asosiy ta'lim dasturlari to'plamini aks ettiradi.

Ko'pbosqichli ta'lim tizimi bozor iqtisodiyotining o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislarning umumiyl madaniy, kasbiy va ilmiy tayyorgarligi moslashuvchanligini oshiradi. Bunda YuNESKO tomonidan qabul qilingan oliy ta'limni rivojlantirishning mahalliy va xorijiy tajribasi va ta'limning xalqaro tasnifi hisobga olinadi, butun dunyo hamjamiyati doirasida yagona ta'lim makonini shakllantirish davrimizning talablariga javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bo'yicha Davlat qo'mitasi boshchiligidagi bir guruh olimlarning sa'y-harakatlari bilan ko'pbosqichli tizimga asoslangan Oliy ta'limi davlat ta'lim standarti ishlab chiqilgan va 1992 yil xukumat qarori bilan ishlab chiqilgan.

Birinchi bosqichga bakalavrlar va kasb-hunar ta’limi dasturlari bo‘yicha o‘rtacha 3-3,5 yillik o‘qitish muddati bo‘lgan o‘rta maxsus o‘quv yurti miqyosidagi ikki yillik o‘qish kiradi.

2-darajali dasturlar shaxslarga universitet doirasida inson va jamiyat, tarix va madaniyat haqidagi ilmiy bilimlar tizimini o‘zlashtirish, tabiatshunoslik bo‘yicha fundamental ta’lim olish va sohalar bo‘yicha kasbiy bilim asoslarini olish imkoniyatini beradi. Ushbu dasturlar asosiy oliv ma’lumotni taqdim etadi. 2-darajali dasturlarni o‘zlashtirgan shaxslar 3- darajadagi o‘quv va kasbiy dasturlarda o‘qishni davom ettirishga yoki mehnatga moslashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga tayyor. Universitetda 2-darajali dasturlar bo‘yicha o‘qish muddati 1-darajali dastur bo‘yicha ikki yillik kollejni muvaffaqiyatli o‘qiganlar uchun kamida 2 yil, umumiyl o‘rta ta’limni tugatganlar uchun esa 4 yil. Asosiy oliv ma’lumot olgan universitet bitiruvchilariga bakalavr darajasi va o‘qish yo‘nalishini ko‘rsatgan holda oliv ma’lumotli diplom beriladi. Universitetda 2- darajali dasturlar bo‘yicha kamida 4 yil o‘qigan shaxslar oliv ma’lumot olishadi va ularga akademik darajasi beriladi.

Bakalavrlar magistraturada o‘qishni davom ettirishlari mumkin (1-2 yil) yoki to‘liq oliv ma’lumotga ega mutaxassis bo‘lishlari mumkin. Magistrlik fanlari dasturi asosan tabiat tadqiqotlari hisoblanadi. Tugatgandan so‘ng, magistr darajasini tayinlash bilan oliv ma’lumot to‘g‘risidagi diplom beriladi.

Mutaxassisni tayyorlash dasturini tugatganlarga, shuningdek, olingan mutaxassislik bo‘yicha malaka tayinlangan holda oliv ma’lumotli diplom beriladi.

Har qanday ta’lim dasturini tugatgan universitet bitiruvchilari aspiranturaga kirish huquqiga ega bo‘lib, magistratura chet tili bo‘yicha imtihon aspiranturaga kirish imtihoni hisoblanadi.

Oliv ta’limning ko‘pbosqichli tizimi ta’limning tarkibiga ham, tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatdi. 1992 yilda universitet ta’limining yangi modeli ishlab chiqildi, unda “bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar o‘rganish maqsadi emas, balki talaba shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi”. Ta’limning istalgan darajadagi zamonaviy universitet bitiruvchisi paydo bo‘layotgan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslasha olishi, kasbiy faoliyatiga moslashuvchan bo‘lishi kerak. U so‘nggi texnologiyalarni yaxshi bilishi, butun dunyo tajribasini sarhisob qiladigan kompyuter, ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar banklaridan foydalana olishi kerak. Ammo, eng muhim, universitetda o‘qigan yillar davomida u ijodiy shaxsning xususiyatlarini rivojlantirishi, tadqiqotchining ko‘nikmalarini shakllantirishi, muhim narsalarni topish va ta’kidlash, favqulodda vaziyatlarni bashorat qilish va oldini olish yoki minimallashtirish qobiliyati, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishi yoki hisobga olishi kerak.

Umuman olganda, ko‘pbosqichli ta’lim tizimi badiiy intellektual salohiyatining elita qismini tayyorlashga imkon beradi.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Badiiy ta’limda didaktik prinsiplarni amalgalash oshirishning o‘ziga xosligi.
2. Artpedagogikada o‘qitish metodlarining turli tasniflari.
3. Zamonaviy ko‘p bosqichli kasbiy badiiy ta’lim tizimi.
4. Oliy ta’limning ko‘pbosqichli tizimining maqsadi.
5. Mamlakatimizda ko‘pbosqichli ta’lim tizimining mohiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vasileva A.A. Mnogourovnevaya sistema xudojestvennogo obrazovaniya na fakultete izobrazitelnogo iskusstva: sovremennoe sostoyanie i perspektivы razvitiya // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. – 2006. – № 1.
2. Podlasuy I. P. Pedagogika. Novyy kurs: Uchebnik dlya stud. ped. vuzov: - V 2 kn. - M.: Guma-nit. izd. sentr VLADOS, 2001. - Kn. 1.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT.

1-Mavzu. Tasviriy san'at fanlarida o'quv va ijodiy jarayon, badiiy obraz va maxsus fanlar kompozitsiyasi.

Reja:

1. Tasviriy san'at fanlarning qisqacha rivojlanish tarixi. Maxsus fanlar o'quv va ijodiy jarayoni.

2. Badiiy obraz va maxsus fanlar kompozitsiyasi. Qonun-qoidalari, bajarish tartiblari.

Tayanch tushunchalar: *ijodiy jarayon, badiiy obraz, kompozitsiya, qonun-qoidalari.*

1. Tasviriy san'at fanlarining qisqacha rivojlanish tarixi.

Asrlar davomida yaratilgan tasviriy asarlar uzoq o'tmishdan darak beruvchi va jamiyatda bo'layotgan voqealarni aks etirilgan kartinalarni zavq bilan tomosha qilamiz. Ular bilimdan tashqari estetik zavq olishga ham katta yordam beradi. Ba'zi bir rasmlar sa'nat sohasiga mansubligiga qaramasdan dunyoni ma'lum darajada o'zgartirdi: masalan, Lasko g'orida "Avinonskie devisy" kartinasi¹³ qoyaga chizilgan rasmlar birinchi odamlar yashab o'tganligi haqida ko'rsatadi, ular bizning tarixdan avvalgi davrdagi tushunchamizni va bilimimizni o'zgartiradi. Shuningdek o'rta asr zodagonlarini tasvirlagan kartinalar yoki jamoatning hayajonini vujudga keltirgan Pablo Pikassoning asarlari shular jumlasidandir.

O'zbek rassomlari tomonidan yaratilgan buyuk asarlar har doim xotiramizdan o'chmasligi aniq. Milliy tasviriy san'atimiz tarixidan ma'lumki K.Behzod, O'.Tansiqboev, R.Axmedov, Ch.Axmarov, Z.Inog'omov kabi rassomlar asarlari katta ahamiyatga ega. Tasviriy san'atning ko'p janrlari: portret, manzara, jang, maishiy, tarixiy shulardandir.

¹³Francisco De Goya (Spanish, 1746-1828)// Paintings: that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-128



14

Bu asarlar psixologik ta'sirchanlik kuchi ma'lum bir tarixiy ahamiyatni kasb etmaydi, lekin madaniyat nuqtai nazaridan ajoyib san'at asarlarining umumiylasavvurini beradi. Biz tasvirlar sahnasiga chuqur yondashamiz va tasvirlangan rasmning talablarida rassomning ichki dunyosi va uning hayotiy uslubi, shuningdek, tasvirlangan voqeanning tarixiy ahamiyatini ko'ramiz. Bugungi kunda dunyoda tasviriy san'atning ahamiyatini butun jahonga mashhur va undan kam bo'lмаган san'at asarlari bizning davrga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoni qayta o'ylashga majbur etgan ibtidoiy san'at. 100 metr chuqurlikda joylashgan Lasko g'orida 1500 dan ziyod o'yilgan paleolit tosh davrining rasmlari va 600 ga yaqin bizon, bug'u, buqa va bosh hayvonlarning tabiiy tasvirlari topilgan. Shu kabi tarixiy rasmlar boshqa hech qaerda topilgani yo'q. Izlanuvchilar aytishadiki, so'nggi xulosada o'zlaridan tarixiy san'at muzeyini bizga meros qoldirgan holda 5 ming yil davomida odamlar shu g'orning devorlarida qayta-qayta rasm chizib, istiqomat qilishgan. Ba'zi bir sur'atlar juda katta hajmda: katta g'orning (Buyuk o'tish joyi) devorlarida tasvirlangan bir necha buqalarning balandligi 5 metrgachadir. Ularning tabiiyligi va ajoyib tarzda bizga yetkazib berilganligi bizning tarixga bo'lgan qarashlarimizni tubdan o'zgartiradi. 19 asrga qadar odamlar yosh bolalarning ijodiga o'xshaydigan beo'xshovlikdan to nazokatli shaklgacha, san'atni kam-kamdan va sekin-astalik bilan rivojlangan deb o'ylashardi. Haqiqatdan ham, 1879 yilda Ispaniya Altomirada topilgan bиринчи devoriy rasmlarni qalbaki deb hisoblashgan. Keyingi topilmalar, Laskoning rasmlarini qo'shgan holda,

² Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-13

barcha shubhalarni o‘chirib tashlandi: miloddan avvalgi 15 ming yilda tasviriy san’at mavjud bo‘lgan.¹⁵

O‘zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san’atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me’morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo‘lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrasiyob, Qalchayon, Tuproq qal’a, Bolalik tepe, Ayrton, Dalvarzin tepe, Fayoz tepe, Qo‘yqirilgan qal’a, Ajina tepe, Teshik qal’a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Bu asarlar eramizdan avvalgi IV-I-asrlarda yaratilgan bo‘lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to‘g‘ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o‘sha davrda to‘plangan ilg‘or tajriba, tasviriy san’at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma’lumki, san’at bir necha avlodning ko‘p yillar davomida shakllangan an’analari, ustuning shogirdga o‘tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so‘zsiz umumiyy badiiy ta’lim yo‘nalishida bo‘lmasa ham, kasbiy badiiy ta’lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma’lum davrlarda O‘zbekiston xududidagi san’at taraqqiyotida uzilishlar ro‘y bergenligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo‘g‘illar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san’atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamlakatlari san’atiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablarida, xususan, umumiyy o‘rtta ta’lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarida san’atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo‘limlari mavjud bo‘lib, kasbiy badiiy va umumiyy badiiy ta’lim tizimlari o‘rtasiga qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Tasviriy san’atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiyy ta’lim tizimida o‘rganiladi. Faqat tasviriy san’atni o‘qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasviriy san’at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o‘rgatgani haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Miraq naqqoshning Xirot “Nigoristoni” (San’at akademiyasi) bo‘lganligi va unda Kamoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma’lum.

¹⁵ Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-12

Professor Orif Usmonov o‘zining “Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi” nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtida nafis tasviriy san’at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o‘z atrofiga eng iste’dodli yoshlarni to‘plagani, ularga san’atining sir- asrorlarini o‘rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbasiy, Mahmud Muzahhib, Mavlono Yoriy, Xasan Bag‘dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali singari o‘nlab iste’dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san’at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma’lumotlardan ayon.

O‘zbekistonda hozirgi zamon ta’lim tizimining paydo bo‘lishi XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Bir guruh fan va madaniyat vakillari Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar Turkistonga yuboriladi. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o‘z asarlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommunal ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o‘lka badiiy xalq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, yangi Buxoroda san’at to‘garagi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san’at kurslari ochildi. Bir yildan so‘ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda shug‘ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yili ochilgan badiiy politexnikumda 170 o‘quvchidan 150 tasi o‘zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san’at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S.Chuykov, mahalliy yosh rassomlardan O‘. Tansiqboevlar yoshlari bilan mashg‘ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O‘zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko‘proq mahalliy yoshlari qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo‘lsa-da umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash borasida ham ma’lum rol o‘ynadi.

Shu bilan birga ta’lim tizimida estetik va badiiy ta’lim masalalariga ham e’tibor qaratila boshlandi.

Maxsus fanlar o‘quv va ijodiy jarayoni. Ijodiy jarayon - bu ongning oliy darajasi, faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo‘lib, u insonga hosdir. Tasviriy san’atda ham ijodning natijasi badiiy asar yaratishdan iborat bo‘ladi. Ya’ni, ob’ektiv borliqni maxsus shakldagi xususiyatlarini badiiy obrazlar tarzida aks ettirishdir. Xaqiqiy san’at asari - o‘zida badiiy obraz shaklida hali bungacha bo‘lmagan yangilikni yaratilishi hisoblanadi. Badiiy ijod esa ijodiy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bunda rassom g‘oyaviy-badiiy mazmunni jam etgan holda tugal

badiiy asar yaratadi. Ijod va ijodiy jarayonlar xuddi fandagidek san'atda ham o‘zining murakkab ko‘rinishlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ijod shunday mehnatki, u ma’naviy boyliklar yaratishga qaratiladi. Ijodiy mehnat hajmi bo‘yicha katta, xarakteri jihatidan rangbarangdir. Mehnat natijasida san’at asari yaratiladi. Rassom mehnati turli- tumandir. Ular adabiyotlar o‘qish, muassasalarga borish, jamoalarga borish, tabiatni kuzatish, qoralama va xomaki rasm, etyudlar bajarish, ko‘rilganlar haqida fikrlash, kompozitsiya eskizlari ustida ishlash va xokazolar. Rassom ijodiy mehnatini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, turli hil kuzatishlar va hayotni o‘rganish, bilim, did va dunyoqarashning o‘sishi, mahorat, ko‘nikma, malakalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – bu asar yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan, qisqa yoki uzoq muddatli bo‘lib, bu g‘oyaning xarakteri, rassomning individual xususiyatlaridan kelib chiqadi. Rassomning keng ko‘lamdagi mehnati, ijodiy jarayonining murakkabligi - bular barchasi san’atda professionallik majburiyatini yuklaydi, tasviriy san’atda yanada alohida maxsus holatlari talab etiladi.

Juda ko‘p mashq qilgan va o‘zining ko‘rish hotirasini rivojlantirgan buyuk rus rassomi V.A.Serov kichik yoshidanoq surat chizishni boshlaganda hotiradan chizishni yoqtirardi. Undan buni ustozi (keyinroq) I.E.Repin ham talab qilgan edi. I.K.Ayvazovskiy esa hayron qolarli darajada ko‘rish hotirasini egallagan edi. Rus rassomlari – manzarachilari F.A.Vasilev, I.I.Levitanlarning ko‘rish hotiralari rivojlanganligini izohlashga hojat yo‘q. Iroda – ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi.

2. Badiiy obraz va maxsus fanlar kompozitsiyasi. Qonun-qoidalari, bajarish tartiblari.

Obraz tushunchasi bilish nazariyasining tarkibiy qismidir. «*Obraz*» deb inson ongida narsa va hodisalarning aks etishi tushuniladi. Inson o‘zining sezgisi, idroki, tasavvuri, tushunchasi va shu kabilar orqali tashqi dunyonи *obraz* shaklida anglaydi.

Badiiy obraz manbai «jonli hayotdir». Badiiy qiyofa voqelikni qayta anglash bo‘lib, estetik tushunchalar sirasiga kiradi.

Badiiy obraz xususiyatlarini inson bilishi jarayoni umumiy qonuniylaridan ajratib mushohada etishi mumkin emas. Badiiy qiyofa bilishning bir turidir. Bilish qonuniylarini san’atda o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, badiiy qiyofa esa jonli mushohada va mavhum tafakkur belgilariga ega bo‘lsa-da, uni ham, buni ham anglatmaydi. Badiiy obraz – hayot kabi murakkab, sermazmun. San’atda hayotning hamma murakkabliklari, qirralari, munosabatlar majmui badiiy obrazda

umumlashtiriladi, unda tashqi (*ob'ektiv*) va ichki (*sub'ektiv*) tomonlar mavjuddir.

San'atkorning his-tuyg'ulari, kechinmalari, rejalari manbai bo'lgan voqeahodisalar, turli vaziyatlar, to'qnashuvlar badiiy obrazning tashqi (*ob'ektiv*) tomonidir. Badiiy qiyofa tashqi dunyoni inson ehtiyojlariga mutanosiblikda aks ettiradi, ya'ni hayotni estetik qadriyat sifatida ifodalaydi.

Portret – tasviriy san'atning eng qadimgi, eng keng tarqalgan va uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur, atroflicha ohib beruvchi janrdir.

Biz bu janrning rangtasvir hamda qalamtasvirdagi afzalliklarini ma'lum darajada ko'rib chiqish, ularni uzaro solishtirib, chuqur tahlil qilish imkoniyatiga egamiz. Bilamizki, portretlar ishlanishiga ko'ra yelkagacha, belgacha yoki bo'ybaravar bo'lishi mumkin. Rangtasvirda ishlangan portretlarda tasvir ko'pincha tizzagacha bo'lgan ko'rinishda uchraydi. Modellar turlicha xolatlarda, ba'zan kiyim-kechaklari diqqatni tortmaydigan, ba'zan esa ko'zni qamashtiradigan darajada aniq va yorqin tugal qilib ishlangan bo'lishi mumkin. Bunday qiyofani ba'zan tekis, to'q fonda, ba'zan manzara fonida, yoki interer muxitida ko'ramiz. Fon qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, odatda asosiy e'tibor yuz ko'rinishiga qaratilgan bo'ladi.

Portretdag'i bu tashqi farqlanishlar, modelning ichki dunyosini ohib beruvchi farqlanishlarning namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Portret – insonni o'zi yashayotgan davrdagi tashqi dunyo bilan munosabatini, jamiyatdag'i o'rni, yashash tarzini aks ettiruvchi xamda uning, ma'naviy va estetik dunyosiga baho beruvchi san'at asaridir.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, portret rangtasvirini – davr qiyofasi deb ayta olamiz.

Ammo albatta, bu ta'rif rangtasvir uchun absolyut tushuncha emas. Endi uning tendensiyalari haqida so'z yuritamiz.

Ma'lumki, portret yaratilayotganida rassom o'zi aks ettirayotgan modelni o'rab turgan atrof-muhit ta'siridan «tozalab», uni inson-shaxs sifatida qandayligini ohib beruvchi zarur dalillar bilan to'ldiradi. Ya'ni tasvirlanuvchining ichki dunyosi bilan «tillashuv» olib boradi.

Bunday yondashuv orqali uning yuz tuzilishi, ko'zлari, yuz ifodasi o'sha inson to'g'risida imkon darajada ma'lumot beradi. Portretning asl mohiyati va bahosi esa o'z navbatida rassom mahorati bilan o'lchanadi.

Yuz – har bir inson uchun individual, betakrordir. Chunki, dunyoda qancha inson bo'lsa, shuncha turdag'i yuz ko'rinishlarini uchratamiz. Demak, xar bir inson yuzi qaytarilmas ekan, uning nafaqat tashqi «tabiiy chexrasi», balki o'ziga xos ruhiyatiga yo'g'rilgan ichki dunyosi ham betakrordir.

Har bir shaxsning ma'naviy dunyosi, uning individual yuz tuzilishi, qalbi, aql darajasi va o'zigagina xosligi umumiyl xususiyatlar bilan chambarchas tarzda hamjihatlikda o'z ifodasini topadi.

Bilamizki, har bir inson jamiyatning ma'lum bir qatlamiga, o'z mashg'uloti, kasbi, hayot tarzi, fikr-mulohazalari bilan ma'lum bir insonlar kategoriyasiga, psixologik temperamentiga taalluqli bo'ladi.

Ayniqsa, o'sha model atrofini o'rabi turgan predmetlar orqali, kiyim- boshi, o'zini tutish yo'sini, qo'l xarakatlari, gavdani tutish xolati-ya'ni: o'zigagina xos shaxsiy xususiyatlari orqali ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Shuningdek, inson chexrasi – uning jamiyatning qaysi qatlamiga ta'luqliligiga, shaxs sifatida tan-joniga singib ketgan umumi xususiyatlariga uning individual fe'l-atvori bilan birlashuvi shaxsning o'ziga xosligini shakllantiradi.

Qalamtasvirda ishlangan portret yuz tasviridagi urg'u shaxsning ichki holatiga, o'sha paytdagi kayfiyatiga yoki biror bir konkret, shaxsiy xususiyatiga, ma'naviy individualligiga va eng muhimi insonning umumi hayot tarziga taalluqli ekanligiga qaratilgan bo'ladi. Bu o'z navbatida rassomga tasvir etilayotgan odamning yuz ifodasi orqali uning xarakterini ochib berish imkoniyatini beradi.

Musavvir qalamtasvir portreti ustida ish olib borar ekan, u bu jarayonning boshidan-oxirigacha natura bilan yuzma-yuz ishlaydi.

Bilamizki qiyofachining yuz ifodasi turli ma'nolarni aks ettiradi. Lekin, shunga qaramay, insonning dunyo bilan o'zaro munosabatini va ichki olamini to'liq va ko'pqirrali tarzda etib yoritish imkoniyatini bermaydi.

Qalamtasvirda ishlangan portretda modelning ichki dardlari, hayotdagি muvaffaqiyatlari, inson sifatida qanday ekanligini ochib berish vazifasi tursa, rangtasvir portretda bu insonning obrazini kelajak – avlodga qoldirish, jamiyatga, odamlarga tanishtirish maqsadi xam yotadi.

Shuning uchun rassom modelning muhim inson ekanligini, insoniylik qirralarini yanada ko'proq va bo'rttiroq ko'rsatib, avlodlarga munosib, ulkan e'tirof bilan namoyon etib berishga urunadi. Uning dunyo bilan, vaqt bilan bog'liqligini, hamohangligini ochishga harakat qiladi.

Portret san'atida uchrab turadigan xususiylikdan umumiyligka o'tishning uchta darajasini belgilash mumkin: bunda portreti ishlanayotgan modelning hayotidagi aynan o'sha paytdagi ruxiy holati, uning shaxs sifatidagi fe'l-atvori hamda jamiyatdagi ijtimoiy, ma'naviy o'mi va u yashayotgan davr to'g'risida ham ma'lumot berishidadir.

Qalamtasvirda portret o'z strukturasiga ko'ra aniq ikki yechimni: modelning ichki holatini va ma'naviy o'ziga xos dunyoqarashini namoyon etadi. Bunday portretlar kamdan-kam hollardagina tasviriy san'atning keng qamrovida vujudga keladi.

Rangtasvir portretlarida esa aksincha, aniq holatlar kamroq uchrab, tasvirdagi shaxsning ijtimoiy tizimdagи o'rni anchayin ideallashtirilib badiiy tarzda aks ettiriladi.

Lekin baribir, qalamtasvirda ham, rangtasvirda ham modelning ma'naviy xarakteri portretning bosh vazifasi bo'lib qolaveradi. Vazifalar yechimi turlicha bo'lgani uchun natijada obraz ham o'zaro

farqlanadi. Ko‘pincha qalamtasvirda modelning yelkasigacha bo‘lgan tasviri tabiiy holatda tasvirlanadi va fon erkin tanlanadi. Portretning barcha xususiyatlarini asosan modelning yuz qiyofasi ifodalaydi.

Rangtasvir portretini yaratishda esa rassom o‘sha shaxs va o‘sha zamon to‘g‘risidagi fikrlarini, tasavvurlarini xam qo‘shib ifodalashi kerak bo‘ladi. Bu esa tasvirlashda portret kompozitsiyasini topib, unga mos ravishda muhit, libos, fon va turli aksessuarlar tanlovini xam amalga oshirishi kerak bo‘ladi. Portretning qalamtasvir va rangtasvir yechimida asosan ikki masala hal etiladi: biri – shaxsning individualligi, o‘xhashligi bo‘lsa, ikkinchisi esa – **obrazning umumlashgan, ideallahsgan ko‘rinishidir.**

Portret san’atidagi bu ikkala yondashuv, ikkala holatni tasvirlashning boshqa janrlarida ham uchratish mumkin. Demak, shunday xulosaga kelish mumkin: «qalamtasvir portretning birinchi chizig‘i, rangtasvir esa uni rivojlantiruvchi, mukammallashtiruvchi ikkinchi chizig‘i»dir.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida berilgan ta’rif hamma portretlar uchun ham mutloq bir xil bo‘lavermaydi.

Tasviriy san’atning keng olamida qalamtasvirda ishlangan portretlarda ham uning muhiti, ma’lum bir fonda o‘sha shaxsning dunyodagi o‘rnini ifodalashi mumkin. Va aksincha, rangtasvir portretida ham rassom butun diqqatini asosan modelning yuziga qaratib, uning aniq bir holatiga urg‘u berishi mumkin.

Endi rangtasvir portreti uchun mo‘ljallangan qalamtasvirni o‘rganib chiqamiz. Uni ishlaganda, portret etyudi uchun yoki mustaqil rangtasvir portreti uchun deb ajratib bo‘lmaydi. Chunki portretning tayyorlov qalamtasviri va uning yordamida ishlangan rangtasvir portreti solishtirilganda, undagi kompozitsiya yechimida umuman farq bo‘lmaydi. Lekin rangtasvir portretida xomaki qalamtasvir to‘liq qaytarilsada, obraz yaratishda ancha-muncha farq bo‘ladi.

Bilamizki, XVII asr – «oltin portret asri» deb nom olgan. Bu davrda ishlangan rangtasvir, qalamtasvirlarda bir xil topilgan portret kompozitsiyalarida bunday holat juda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qalamtasvirda ham modelning aniq ichli ruxiy holati keng miqyosda berila boshlagan. Bu asrga kelib, portretning his-tuyg‘uga boyligi ochiq va turlicha ifodalangan.

Mashhur rassom P.Rubens hayotining so‘ngi yillarida ishlagan «Avtoportret» ida donishmandlik, qayg‘u, ichki dard, bezovtalik shunday bir kuch bilan ifodalanganki, unda inson umrining yakunida his etadigan tuyg‘ulari ro‘yi – rost namoyon bo‘lib turadi.

P.Rubensning rangtasvirda ishlangan «Avtoportret» ida esa yuz ifodasi bir oz yumshaganligi seziladi. Qalamtasvirida yuz diqqatni qattiq tortsa, rangtasvir portretida obraz uning tik, viqorli gavdasi bilan romantik liboslarga o‘ralib turishi, ya’ni tashqi qiyofaga berilgan e’tibor bilan yaxlitlik kasb etgan. Bu yerda inson dardi, uning viqorli, romantik

turishidan ustun kela olmagan. Chunki rangtasvir portreti uchun ishlangan qalamtasvir erkin ijro etilgan. Rassom rangtasvir portretini qalamtasvir asosidagina yaratishga erishgan.

Rangtasvir portretiga mo‘ljallab ishlangan qalamtasvirlarning to‘liq va yorqin obrazli bo‘lishi portretlar turli kompozitsiya yechimlari asosida ishlansagina o‘z ovoziga ega bo‘ladi.

Qalamtasvirda ishlangan portretda ko‘zlar, lablarda nim tabassum kabi murakkab holatlarni berish mumkin. Rangda esa bu portret beligacha yoki qo‘llari bilan, atrof-muhit, fon, liboslari qo‘shilib, yuzdagi bu ifoda kuchi kamayib, butunlay boshqa obrazga aylanadi.

Agar qalamtasvirda modelni inson sifatida yuzma-yuz ko‘rsak, rangtasvir portretida bizning ko‘z oldimizda raxbar, olim, talaba jamiyatdagi o‘z o‘rni, undagi mavqeい bilan namoyon bo‘ladi. Bunda biz faqat inson yuzini emas, o‘sha davrni, ma’lum yurtni, masalan: XVI asrdagi Italiyani yoki XXI asrdagi O‘zbekistonni ko‘ramiz.

Tasviriy san’at fanlar kompozitsiyasi. Qonun-qoidalari, bajarish tartiblari.

Kompozitsiyaning effektli ifodasi uchun kompozitsiyaning elementi haqidagi tushuncha ilgari surilishi kerak, har bir faktorning tushunchasi orqali ko‘rganlarimizning taasurotlari va ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan shakl harakatini shakllantiradi.

Kompozitsiyaning faktorlari nuqta, chiziq, tekislik, shakl (forma), rang, soya (ranglar), hajmni his qilish, ishlatayotgan materialimizni his qilish, o‘lcham, yo‘nalish, kompozitsiya, illyuziya kabilardir. Biz faktorlarni tushunchamizdagi faktorlar va ko‘z oldimizdagi faktorlar deb qarashimiz mumkin.



Kompozitsiya - nuqta, chiziq, yuza kabi uchta muhim elementlar shaklini o‘zlashtirib, kuzatilishi,



albatta, plastikaning birligi va tartibiga ega bo‘lgan psixologik harakatdir. Bunday shakl go‘zallagini hal qiliuvchi prinsipini go‘zallik prinsipi yoki shakl (figura) prinsipi deyiladi. Bu shakl rang, natura, hajm kabi o‘zaro boshqa boshqa elementlarni tekislikda ifodalanganda shakllanadigan shaklni chiroyli va uyg‘un bo‘lishidagi go‘zallik qonunidir. Bu shakl prinsipi tushunchasi estetik muammo sifatida qadimdan shu kungacha ko‘p narsalarni ko‘rsatib kelgan bo‘lib, uning mazmuni quyidagichadir.

Composition VII (Third Version)¹

2) Birlik - birlik bu his qilish yoki real shakl, rang, hajm material hamda texnik jihatdan estetik birlik yoki tartib deganidir.

Uyg‘unlik deb, bir yoki undan ortiq qismlarning o‘zaro munosabatida estetik qimmati jihatidan bir - biridan ajratilmasdan, har bir element birlashganda hosil qiladigan estetik shaklga aytildi.

3) O‘zgarish - birlikdan ajratib bo‘lmas munosabatdadir. Lekin judayam murakkab o‘zgarishlarda birlik tartib bilan mustaxkamlanmasa, kompozitsiya betartib ko‘rinishga kelib, hatto mavzu ham sustlashib, bu bir xillilik (monotonli) va zamondan ortda qolish kabi oqibatlarga olib keladi.

Proporsiya - kattalik yoki uzunlik o‘rtasidagi farqni bildirib, balans bilan uzviy bog‘liqdir.

3) Balans degani, simmetriyada farq qilib, har tomonlama nosimetrik shakllarning ko‘rinishi va ruhiy muvozanatdir.

Simmetriya - muvozanat deb ham yuritilib, qarama - qarshi tomonlarda joylashgan barcha nuqtalarning o‘zaro bir xil masofada qo‘llanilishi tartibiga tayanib, birlashtirish xususiyatini beruvchi tushunchadir.

5) Ritm - har bir elementning kuchli yoki zaifligi, shuningdek, ritm davrini hamda davomiy harakatdir.

- Asta - sekin o‘sib borish: asta - sekin o‘zgarib borish yorug‘lik va qorong‘ulik, shuningdek, kombinatsiyaning yorkinlik darajasini ifodalovchi tushunchadir. Asta-sekin oldinga siljish, nuqta deb ham yuritilib, mos keluvchi pog‘onalarga asoslanib, qat‘iy tartiblarga ega bo‘lgan tabiiy tartib qoidalarning o‘zaro harakati bilan ifodalananadigan tizim deb ham talqin qilinadi.

- Takrorlash - ajratilgan masofada takrorlanishdir. Oddiy takrorlanish bir xil va oddiy bo‘lsada, davriy takrorlanish o‘zgaruvchan ritm kaytarilganda, jozibador ritm bo‘lib, bunday murakkab davomiy ritmga asoslangan takrorlanishni kesishish deb ham ataladi.

¹ Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-167

6) Urg‘u – atrof - muxitning biror bir shartiga ko‘ra maxsus bir qismiga qattiq o‘zgartirish faktoridir. Lekin urg‘u birdan ortiq berilsa, aksincha urg‘u o‘z kuchini yo‘qotishi mumkin. Urg‘uning kattaligi keragidan ortiq ishlatilmaydi, ya’ni urg‘u berishning ham o‘z chegarasi bor.

- Kontrast - qiyoslash xususiyati va miqdorni ajratib, ikkidan ortiq joy yoki vaqtga nisbatan joylashganda hosil bo‘ladigan birlik shakli, ya’ni shakl yoki rang kabilarga kontrast berish orqali o‘zgarishni amalga oshiruvchi prinsipdir. Rangsiz tasvirda oq va qora rangni qiyoslash shunga misol bo‘la oladi.

7) Joy-joy birlik va o‘zgarishning prinsipi o‘zida mujassam etgan alohida har bir xususiyatni yana bir pog‘ona kuchatirib beruvchi rolni o‘ynaydi. Joy ko‘rinishida biror bir shaklni ajratganda, hosil bo‘ladigan joyni ishlatishda muhim ahamiyat kasb etadi.



- Shakl (figura)ning prinsiplarini tushunish usullari
- Xis - tuyg‘ularni har tomonlama chiroli kabul qilaylik.
- Yo‘nalish, ritm, kuchli va zaifligiga tayanib, nurning kuchli kuchsizligi kabilarga urg‘u berish.
 - Proporsiya, ritm, balans, uyg‘unlik (garmoniya), qiyoslash (kontrast), birlik kabilalar boshqa barcha shakllarga ta’sir ko‘rsatib estetik prinsiplarni qo‘llaydi.
 - Estetik munosabat va tasavvurlarimizni hamda predmetni his qilish qobiliyatimizni ifodalaydi.
 - Balandlik, chukurlik, kenglik mavjud bo‘lgan strukturaviy bo‘shliq balansi deb tasavvur qilishmiz mumkin.
 - Biz bo‘shliqni undagi mavjudot, harakatlar orqali his qilishimiz mumkin.
 - Predmetni his qilish havo, nur va soyaning yo‘nalishiga qarab anglashimiz mumkin.
 - Materialni tushunib, unga ishlov berish usullarini o‘rganib, estetik jihatdan ifodalab berishimiz kerak.

Jarayonlar - ishlatadigan materialimizni o‘rganib chiqish - mavzu tanlash – eskiz - shakl (figura) prinsipini tushuntirish - tanlangan obektni kuzatib, u haqida turli materiallar yig‘ish, ya’ni uning tuzulishi, hayot tarzi va boshqa boshqalar o‘rganilgandan keyin obektimiz jonlantirib yasaladi.

² Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-165

The Green Fiddler³

1) Nuqta haqidagi tushuncha bu - ko‘z nishonga oluvchi belgi, kichik bir mavjudot, ko‘zga ko‘rinmas narsalar, ya’ni katta hajmga ega bo‘lmagan joyni anglatadi deyishimiz mumkin. Lekin uning anikroq ifodasi uchun belgilangan biror joy yoki ko‘rinishni belgilashi kerak. Odam yoki katta fil bo‘lmasin, uzoq bir tekislikda kichik bir nuqtaday ko‘rinadi. Darhaqiqat, biz buni nuqta deb qabul qilishimiz mumkin. Yuzaning kattaligi va nuqta bilan munosabati, nuqtaning soni, joylashishiga qarab, nuqtani turlicha his qilishimiz mumkin.

2) Chiziq haqidagi umumiyl tushunchamiz ip yoki uzunligi boru, eni va hajmi bo‘lmagan, borlikda yo‘nalishigina bor ingichka bir narsadir. Geometriya fanida minglab nutqalarning yig‘indisi chiziq deb ataladi. San’atda chiziq haqidagi umumiyl tushuncha - bu qimirlayotgan nuqtalar yig‘indisidir

3) Yuza - ranglarning kuchi orqali kompozitsiyaga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan faktordir. Yana chiziqlar yuzaning asosiy faktori hisoblanadi.

4) Biror bir narsaning tashki tomonini chegaralaydigan ranglar jilosining o‘zgarishiga tayanadigan yoki chiziqlar vositasida hosil bo‘ladigan ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni tushunishimizdir. Obrazni konkret va abstrakt obrazlarga ajratishimiz mumkin.

5) Ranglar - ranglar strukturaning faktori ichida eng ta’sirlisi bo‘lib, boshqa faktorlarga qaraganda, yanada tabiiy va instinkтивdir. Rangsiz tasvirli asarlar inson e’tiborini o‘ziga torta olmaydi, lekin hayotiyligi bilan ajralib turadi.

6) Ranglar jilosi - ranglar jilosi uyg‘unligi rang uyg‘unligining asosidir. Turli ranglar guruhini biz ifodalaganimizda bir ranga mansub bo‘lgan shu rangning boshqa jilolarini ifodalash mumkin.

7) Tasvirlayotgan predmetimizning strukturasi deb (natura), qo‘limiz bilan ushlab his qilishimiz mumkin bo‘lgan narsalardan boshlab, barcha ko‘zga ko‘rinadigan narsalar haqidagi tuyg‘ularimiz umuman olganda, tabiatga, borliqqa nisbatan ishlatiladi.

8) O‘lcham - chiziq, tekislik (yuza), figura o‘rtasidagi oraliq va shu oraliqdagi o‘lchamlar tushuniladi. Kichik bir to‘rtburchak bilan Misr piramidalari ikkisining ham ko‘rinishi bir xil to‘rtburchakkdir. Lekin o‘lchamlari tufayli bizda turlicha taassurot qoldiradi.

9) Yo‘nalish - barcha chiziqlarning yo‘nalishi bor. Ana shu yo‘nalishlarning asosi bo‘lgan vertikal, gorizontal, o‘ng va chapga 45 darajali qiyalik kabilardir.

³ Klaus Reichold. Bernhard Graf. Paintings that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.- P.-175

10) Kompozitsiya - rasm (kompozitsiya) yoki dizaynda bo‘lgani kabi o‘zgarish va birlik mavjud bo‘lgan, go‘zallikni his qilishda katta rol o‘ynaydigan, mavzuga mos kompozitsiyagina yaxshi asar bo‘lishi mumkin. Oddiy uchburchak kompozitsiyada muvozanat va keng ko‘ngillilik, perpendikulyar sokinlik va bayramonalikni, yotiq tekislikda esa, tinchlik, sokinlik va kenglikni his qilish mumkin.

11) Illyuziya - illyuziya degani ko‘zning fiziologik harakatiga tayangan holda sodir bo‘ladigan vizual illyuziyaga aytildi.

• Chizma (shakl) - b i r shakl orqali ikki turdag'i boshqa shakl (figura) yoki undan ortig‘ini ko‘rish orqali, bundan oldingi fazoviy shakllarning hosil bo‘lishidir.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Tasviriy san’at fanlarning qisqacha rivojlanish tarixining muhim tomonlarini sanab o‘ting?

2. Tasviriy san’at fanlar o‘quv va ijodiy jarayoni.

3. Badiiy obraz va maxsus fanlar kompozitsiyasi.

4. Qonun-qoidalari, prinsipi, bajarish tartiblari.

5. Kompozitsyaning faktorlarini bayon qiling.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Paintings: that Changed the World.-Munich. Berlin, London, New York.- 2003.

2. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphic for Artist.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013

3. Rudolf Arnheim. Art and Visual Perception:A Psychology of the Creative Eye.- University of California Press, USA 2004

Tasviriy san’at fanlarida o‘quv va ijodiy jarayon, badiiy obraz va kompozitsiyasi.

Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:

O‘quv va ijodiy jarayonlar va ularning qiyosiy nisbatini; “Badiiy obraz” tushunchasining tavsiflanishini;

“Maxsus fanlar” va “Kompozitsiya” tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rgatishdan iborat.

Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar.

Mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulotga doir grafikli organayzerlar 1-topshiriq.

**O‘quv va ijodiy jarayonni berilgan jadval bo‘yicha ajratib
ko‘rsating va har bir tushunchalarni izohlab bering.**


O‘quv jarayoni - bu yangi bilimlarni olish va o‘zlashtirishga qaratilgan ta’lim jarayoni, maxsus ishlab chiqilgan o‘quv rejalari va rejalariga muvofiq amalga oshiriladigan doimiy faoliyatdir.

Ijodiy jarayoni – bu badiiy asar yaratish; ijodiy jarayonning asosiy bosqichlari - g‘oyaning paydo bo‘lishi va uni tarbiyalash, asarning g‘oyaviy-mavzuni asoslarini izlash, uni amalga oshirish uchun obrazli tizimni ishlab chiqish, tasviriy-ifodaviy vositalarni takomillashtirish. Bunda ijodiy ilhom va badiiy tasavvur muhim o‘rinni egallaydi.


2-topshiriq. “Badiy obraz” tushunchasiga oid qanday ta’riflarni bilasiz?

Quyidagi rasmni to‘ldiring!

“Бадиий образ” тушунчасига оид қандай таърифларни биласиз?



3-topshiriq. Ijodiy jarayonda namoyon bo‘ladigan holatlarni aniqlang!



Ижодий жараёнда
намоён бўладиган
ҳолатга маълумот
беринг

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘quv va ijodiy jarayoni nimalardan iborat va ularning qiyosiy nisbatini tushuntirib bering?
2. Maxsus fanlarga ta’rif bering?

3. “Badiiy obraz” tushunchasining tavsiflanishini izohlang?
4. “Maxsus fanlar” va “Kompozitsiya” tushunchalarining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
5. Ingliz G.Uolls fikricha, “Ijodiy jarayon” tushunchasi qanday yoritiladi va ularga ma’lumot bering?
6. Ijodiy jarayon bosqichlariga ta’rif bering.

7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Miraxmedov K., Karimov B., Nurullaev I. Tasviriy san’at. Darslik. 6 sinf. -T., G.Gulyam. 2017.
2. Kuziev T., Abdirasilov S., Nurtaev U., Suleymanov A. Tasviriy san’at. Darslik. 5sinf. T., O’zbekiston. 2020.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019.-160 b.

2-AMALIY MASHG’ULOT

Tasviriy san’at fanlarda odam boshi va inson qomati qalamtasviri.

Ishdan maqsad: Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida maxsus fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim shakllari, vositalaridan foydalanish metodikasiga oid ma’lumotlarni tizimlash- tirish va mavjud ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tinglovchiga eslatma

Tasviriy san’at o‘qituvchisi ijodkor-pedagog o‘z kasbining yetuk ustasi – rassom, ustoz-pedagog ma’lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Tasviriy san’at o‘qituvchisi barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg‘or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganib,

kasbiy-pedagogik ijodkorligini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirib boradi.

Insonning hissiy holatini uning yuz ifodalari orqali tushunish va uni rang va chiziq yordamida portretda yetkazish.

Tinglovchilar:

Mavjud bilimlardan foydalangan holda asl portretlar yarating. Ba'zilar:

Mavjud bilim va ko'nikmalar asosida avtoportret yarating.

"Portretni turli kayfiyatda chizish".

1-topshiriq. O'rghanishlar davomida talabalarning odam boshini tasvirlashni bosqichma-bosqich ishlanmasini yaratish va tashkil etishni yo'llarini ishlab chiqing.

1 – ajablanib	2 – qayg'u	3 – g'azab	4 – zerikish
5 – quvonch	6 – ayyor	7 - xayolparastlik	

O'qituvchining yechimi

Insonning turli emotsional holatlari chunonchi, badanning xilma-xil ifodali harakatlari, imo-ishoralar, xususan, ko‘z bilan qilinadigan imolar, tovushning ohangi, xo‘mrayish, salgina jilmayib kulish, yelka qisish va boshqa ifodali harakatlar maqsadini hamda uning kimligini ochib beradi.

Psixolog P.M.Yakobson tomonidan ishlangan rasmlardan ko‘rinib turibdiki, odamning aftidagi qiyofa asosan lablar, qosh va ko‘z o‘zgarishlarining bir-biriga nisbatan turlicha holatiga, shuningdek ko‘zning qanchalik chaqnab turishiga bog‘liqdir»³.

Inson kishining axloq-odobi, qolaversa, ichki, ma’naviy olamining qandayligi yuzida bamisolni ko‘zgudagi kabi aks etib turishiga xalq azaldan e’tibor bergan. Masalan, ko‘zning o‘zini

olaylik. Yaxshi odamlarning ko‘zlari porlab turadi, chaqnab turadi, ko‘zlarida sehri bor deyiladi. Shu bois ham go‘zal qizlar qosh- ko‘zlari popukdekkina deb tasvirlanadi, yorning ko‘zlar charosga qiyoslanadi. Qo‘yko‘z, bo‘tako‘z, ohu ko‘z, shahlo ko‘z, xumor ko‘z degan iboralar bor va hokazo.

Kant ta’limotiga ko‘ra, yuz terisi silliq va tuzilishi mukammal bo‘lgan zo‘r

zakovat egasi, daxo bo‘lishi mumkin emas. Men boshqa go‘zallik - bir-biriga qovushmagan nomukammal a’zolar va uqubatlar guvohi bo‘lmish ajinlardan iborat go‘zallik haqida gapirayapman. Eng muhimmi, insonning borlig‘idan quyilib turgan ichki nuri bo‘lsin.



³ Raumonov M. Psixologiya kursida k’rsatmalilik.- Toshkent: Қитувчи, 1981.- 115 b.



2-topshiriq. Talabalarning odam boshini tasvirlash ishlarining mazmuniga oid tushunchalarni izohlang!

Nº	Iboralar	Mazmuni
1.	Portret -	
2.	Avtoportret -	
3.	Psixologik -	
4.	Tantanali –	
5.	Ijtimoiy -	
6.	Kamerli -	

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.


O‘qituvchining varianti

Nº	Iboralar	Mazmuni
1.	Portret -	Portret - bu shaxs yoki bir guruh odamlar tasvirlangan rasm. Portretlarda rassomlar nafaqat tashqi o‘xshashlikni, balki inson xarakterini ham yetkazishga intilishadi.

2.	Avtoportret -	bu rassomning grafika, tasviriy yeki haykaltaroshlik tasviri bo‘lib, u o‘zini oyna orqali yaratgan portreti.
3.	Psixologik portret -	insonning ichki dunyosi va kechinmalarining chuqurligini ko‘rsatishga, uning shaxsiyatining to‘liqligini aks ettirishga, insoniy tuyg‘ular va harakatlarining cheksiz harakatini bir lahzada aks ettirishga qaratilgan.
4.	Tantanali portret –	bu odam to‘liq bo‘yida, otda, turgan yoki o‘tirgan holda tasvirlangan portret. Odatda tantanali portretda qomat me’moriy yoki landshaft fonida berilgan.
5.	Ijtimoiy portret -	kasbiy faoliyatning mazmunini tushunishga, bo‘sh vaqtini o‘tkazishga, inson yashaydigan muhitning xususiyatlaridan kelib chiqib, uning shaxsiyatini baholashga imkon beradi.
6.	Kamerli portret -	bu yarim uzunlikdagi, ko‘krak yoki yelka tasviridan foydalananilgan portret. Kamera portretidagi rasm odatda neytral fonda ko‘rsatiladi.

3-topshiriq. Grafikli organayzerlar asosida ishlab chiqilgan mavzuga oid topshiriqlar keltirilgan bo‘lib, ularda keltirilgan savollarning javoblarini toping va misollar bilan tushuntirib bering.

“Rasm” fani nomini “Tasviriy san’at” fani nomi bilan o‘zgartirilishining qanday omillari mavjud?



4-topshiriq. Maxsus fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadi va vazifalari amaldagi tasviriy san’at fani maqsad va vazifalaridan qanday farqli tomonlari bor?



Nazorat savollari

1. Portret deganda nimani tushunasiz?
2. Portret janri nima? Bu janrda ijod etgan rassomlar kimlar?
3. Proporsional nisbiy tengligidagi o‘ziga xoslik nimalardan iborat tushuntirib bering?
4. Mustaqil O‘zbekiston tasviriy san’ati yo‘nalishlariga ta’rif bering?
5. Grafikadagi avangard yo‘nalishida ijod qilgan rassomlar?
6. Haykaltaroshlik yo‘nalishidagi rivoji haqida ma’lumot bering?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Miraxmedov K., Karimov B., Nurullaev I. Tasviriy san’at. Darslik. 6 sinf. -T., G.Gulyam. 2017.
2. Kuziev T., Abdirasilov S., Nurtaev U., Suleymanov A. Tasviriy san’at. Darslik. 5sinf. T., O‘zbekiston. 2020.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019.-160 b.

3-AMALIY MASHG‘ULOT.

Tasviriy san’at faoliyatiga polifunksional tayyorgarlikning pedagogik asoslarini.

Ishdan maqsad: Tinglovchilarda o‘qituvchi, san’atshunos va rassom polifunksional tayyorgarlik ilmiy-pedagogik xususiyatlarini o‘rganish: kuzatish, suhbatlar, kasbga moslashish, kvalifikatsion modeli kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha malakalarini rivojlantirish.

Tinglovchilar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar.

1-topshiriq. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining bajaradigan ishlarining funksiyalari va ularning mazmuniga oid tushunchalarni izohlang!

No	Funksiyalar	Mazmuni
-----------	--------------------	----------------

1.	O‘qituvchi -	
2.	Rassom -	
3.	San’atshunos -	

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O‘qituvchining varianti

Nº	Funksiyalar	Mazmuni
1.	O‘qituvchi -	o‘quv metodik qo‘llanma, darsliklar materiallari va dasturlar asosida tuzilgan kalender rejasi bo‘yicha tasviriy san’at mashg‘ulotlarini konspekt-rejasini tuzish malakasiga ega bo‘lish; tasvirlash mashg‘ulotlar jarayonida didaktik prinsiplarga rioya qilish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarni tasvirlashga o‘rgatish malakasiga ega bo‘lish; o‘quvchilarning rasmlarini metodik jihatdan to‘g‘ri baholash malakasiga ega bo‘lish; tasvirlashda o‘quvchilar tomonidan yuzaga kelgan hatolarni metodik jihatdan to‘g‘ri tuzatish kiritish malakasiga ega bo‘lish.
2.	Rassom -	- narsalar va hodisalarni to‘g‘ri kuzatish malakasiga ega bo‘lish; narsa va hodisalarni ilmiy bilish; qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyalarni ilmiy asoslarini bilish; tasvirlash metodlarini bilish va ularni ishlash texnikasini egallah; hayotda ko‘rimsiz va go‘zallikni ko‘ra bilish malakasiga ega bo‘lish. Ranglar bilan ishslash malakasi, ranglar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; ranglar hosil qilish malakasiga ega bo‘lish; ranglarni ilmiy asoslarini bilish; ranglar bilan tasvirlash metodlarini bilish va ularni ishslash texnikasini egallah.
3.	San’atshunos -	- san’atni jamiyat ongini aks etish shakllari kabi bilish; hayotdagi san’at o‘rnini bilish; san’atni ilm, din, mifologiya bilan bog‘liqligini bilish. Tasviriy san’at tur va janrlarini bilish, musiqani bilish;

	adabiyotni bilish; kinoni bilish; tasviriy san'atni bilish; a) grafika; b) rangtasvir; v) haykaltaroshlik; g) amaliy san'at; d) me'morchilik. Rangtasvir: moybo'yoq, tempera, guash, akvarel, pastel, mahobatli, dastgohli, dekorativ. Rangtasvir-grafika-haykaltaroshlik: animalistik, manzarali, portretli, maishiy, tarixiy, batal, natyurmort, karikatura va boshqa janrlarni bilish.
--	---

2-topshiriq. Demak, "...faoliyatga tayyorlik - bu shaxsning potensial xususiyati sifatida o'zini namoyon qiladigan murakkab yaxlit ta'lif. Tayyorgarlik komponenti "pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat" bildirib, o'qituvchi mehnatining ijtimoiy ahamiyatini anglash va uni ijtimoiy va kasbiy burch sifatida bajarish zarurligini, faoliyatning har xil turlariga qiziqishni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlar asosiy qism hisoblanadi, chunki ular pedagogik ishlarga ijobiy munosabat mohiyatini belgilaydi". Shunday qilib, faoliyatga tayyorlikni faqat maqsadga erishilganda, ya'ni, taxmin qilingan bilim va malakalarni talabalar o'zlashtirganda va natijada ular faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Tasviriy san'at o'qituvchisi tizimni shakllantiruvchi omil sifatida ishlaydi, chunki bu mavzulararo aloqani talabalar o'r ganadigan maxsus umumiy kasbiy va umumiy fanlar darajasida amalga oshirishni talab qiladi. Shu ma'noda, u butun kafedra o'qituvchilarini, ham universitet miqyosida, ham professor-o'qituvchilarni birlashtirgan umumiy maqsad vazifasini bajaradi.

Tasviriy san'at o'qituvchisini maxsus kasbiy fanlar darajasida shakllantirishda qanday bilim va malakalar kerak bo'ladi.

Tinglovchilarga quyidagi jadvalni to'ldirish talab etiladi.

Tinglovchi uchun ish varog'i

Tayyorgarlik komponenti nomlari	Bilim va malakalar		
1. San'at mohiyatini bilishda quyidagi bilimlar			
2. San'atning janrlari va turlarini bilishda quyidagi bilimlar			
3. Tasviriy san'at tari-xini bilishda			
quyidagi bilimlar			

4. Asarlarni tahlil qilish malakasi			
5. Tasviriy san'at haqida ma'ruzalar, referatlar tuzish malakasi			
6. Naturadan tasvirlash malakasi.			
7. Mavzu bo'yicha rasm chizish malakasi.			
8. Dekorativ rasm chizish malakasi.			
9. Naturadan rasm chizish darslarini rejulashti-rish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.			
10. Mavzuli rasm chizish darslarini rejulashti-rish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.			
11. Dekorativ rasm darslarini rejulashti-rish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.			
12. Tasviriy san'at haqida suhbatlar darsla-rini tashkil qilishni rejelashtirish va tahlil qilish malakasi.			
13. Tasviriy san'atdagi boshqa ish turlarini rejelashtirish, tartibga solish va			

tahlil malakasi.	qilish			
---------------------	--------	--	--	--

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O‘qituvchining varianti

Tayyorgarlik komponenti nomlari	Bilim va malakalar		
1. San’at mohiyatini bilishda quyidagi bilimlar	ijtimoiy ongni aks ettirish shakli sifatida san’atni bilish;	san’atning hayotdagi o‘rnini to‘g‘risida bilim;	san’at va fan, din, mifologiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni bilish.
2. San’atning janrlari va turlarini bilishda quyidagi bilimlar	musiqa haqida, adabiyotni, kino haqida bilish; tasviriylar san’atni bilish;	grafikalar; rasm; haykallar; dekorativ-amaliy san’at; me’morchilik	Rangtasvir: moybo‘yoq, tempera, guash, akvarel, pastel, mahobatli, dastgohli, dekorativ. Rangtasvir - grafika - haykaltaroshlik: animalistik, manzara, portret, batal, maishiy, tarixiy, natyurmort, karikatura va b. janrlar.
3. Tasviriylar san’at tari-xini bilishda quyidagi bilimlar	san’at paydo bo‘lishining sabablari va ijtimoiy zarurligini bilish - jamoat ongini aks ettirish shakllari sifatida;	tasviriylar san’at rivojlanishining asosiy bosqichlari haqida umumiy ma’lumot;	Uyg‘onish davri haqida batafsil ma’lumot - tasviriylar san’atning rivojlanish davri sifatida; O‘zbekiston tasviriylar san’ati tarixi va jahondagi taniqli

			rassomlarning hayoti va ijodi to‘g‘risida bilish.
4. Asarlarni tahlil qilish malakasi	jahon tasviriy san’ati durdonalarini bilish;	qalamtasvir va asarlarning mazmuni, og‘zak i vositalar bilan talqin qilish malakasi;	asarlarning g‘oyaviy mazmunini ochish berish malakasi.
5. Tasviriy san’at haqida ma’ruzalar, referatlar tuzish malakasi	tasviriy san’atning muayyan mavzulari bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyot-larni bibliogra- fiyasini tuzish malakasi;	asarlar, haykaltaroshlik reproduksiyalarini to‘plash, shuningdek albomlar tuzish malakasi (davr, maktab, yo‘nalish bo‘yicha va b.q).	tasviriy san’at bo‘yicha materiallarni talqin qilish malakasi; san’at tarixi bo‘yicha olgan bilimlarini og‘zaki va yozma ravishda ifoda etish malakasi.
6. Naturadan tasvirlash malakasi.	narsalar va hodisa-larni professional ravishda kuzatish malakasi;	narsalar va hodisa-larni ilmiy bilish; qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyaning ilmiy asoslarini bilish;	rasm chizish metodika-sini bilish va ularning texnikasini o‘zlashtirish;
7. Mavzu bo‘yicha rasm chizish malakasi.	tavsiya etilgan mavzuning g‘oyaviy mazmunini tushunish malakasi;	qalamtasvir rangtasvir kompozitsiyaning ilmiy-uslubiy asoslariga rioya qilish malakasi;	- hayotning turli sohalari-ni bilish - rasm chizish uchun mo‘ljallangan mavzular bo‘yicha; tarixiy, adabiy, musiqiy asarlarni tasvirlash malakasi.

8. Dekorativ rasm chizish malakasi.	Boshqa xalqlarning birinchi navbatda o‘z xalqining naqsh-lari	va qalamtasvir, rangtasvir, dekorativ-amaliy san’at kompozisiyasi asoslarini bilish.	Tayyor naqshlar va bezaklarni nusxasini ko‘chirish malakasi; Naqsh va bezaklarni ijodiy
-------------------------------------	---	--	---

	bezaklari-ning yetarli miqdorini bilish.		va mustaqil ravishda tuzish malakasi.
9. Naturadan rasm chizish darslarini rejalashti-rish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.	dastur materiallari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalariga asoslanib taqvimi rejasi asosida naturadan rasm chizish darsining konspektini tuzish malakasi; naturadan chizish dars jarayonida didaktik prinsiplariga amal qilish malakasi;	talabalarni naturadan rasm chizishga o‘rgatish malakasi; naturadan chizish jarayonida talabalarining mustaqil va jamoaviy ish shaklini tashkil etish malakasi;	o‘quvchilarning rasmlari va kompozitsiyalarini metodik jihatdan to‘g‘ri baholash malakasi; naturadan rasm chizishda o‘quvchilarning xatola-rini metodik ravishda to‘g‘ri tuzatish malakasi.

10. Mavzuli rasm chizish darslarini rejalashti-rish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.	dastur, darslik materiallari, o‘quv qo‘llanmalari asosida taqvimiy rejaga muvofiq mavzuli rasm darsining konseptini tuzish malakasi; Mavzuni, g‘oyaviy mazmunini shakllantirish, syujetni tanlash malakasi;	mavzuga rasm chizish jarayonida talabalar ishining mustaqil va jamoaviy shaklini tashkil etish malakasi; mavzuli rasm darslari jarayonida didaktik prinsiplariga amal qilish malakasi;	Talabalarni adabiy, tarixiy, musiqiy asarlarini rasmlar bilan bezashga o‘rgatish malakasi; Mavzu bo‘yicha talabalarning rasmlari va kompozitsiyalarini oqilona baholash malakasi.
---	---	--	---

11. Dekorativ rasm darslarini rejalashti-rish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.	darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari dasturi va material-lari asosida taqvimiy rejasi bo‘yicha dekorativ rasm darsining konseptini tuzish malakasi;	dekorativ rasm darslari jarayonida talabalarning mustaqil va jamoaviy ishlarini tashkil etish malakasi; dekorativ rasm darslari jarayonida didaktik prinsiplariga amal qilish malakasi;	o‘quvchilarni dekorativ rasmga o‘rgatish malakasi; o‘quvchilarning naqshlari va bezaklarini, tasviriy san’at haqidagi suhbatlar natijalarini oqilona baholash malakasi;
---	--	---	---

12. Tasviriy san'at haqida suhbatlar darsla-rini tashkil qilishni rejalashtirish va tahlil qilish malakasi.	dastur va darslik-lar, o‘quv qo‘llanmalarini asosida taqvim rejasi asosida tasviriy san'at haqidagi dars-suhbatning konspektini tuzish malakasi;	suhbatlar mavzusi bo‘yicha savollarni shakllantirish malakasi; tasviriy san'at haqidagi suhbatda dars jarayonida didaktik prinsiplariga amal qilish malakasi;	san’atshunoslik bilim-lari orqali talabalar-ning dunyoqarashini shakllantirish malakasi; tasviriy san'at haqida suhbatdarsini umumlashtirish malakasi.
13. Tasviriy san'atdagi boshqa ish turlarini rejalashtirish, tartibga solish va tahlil qilish malakasi.		talabalar rasmlari va ko‘rgazma ishlari tanlovini rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi;	muzeylarga, ko‘rgazma zallariga, tasviriy san'at galereyalarga ekskursiyalarni rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish malakasi.

3-topshiriq. Bo‘lajak tasviriy san'at o‘qituvchisining bajaradigan ishlarining vazifalari va ularning kvalifikatsion modeli mazmuniga oid tushunchalarni izohlang!

Nº	Vazifalar	Qanday amaliyot, uning mazmuni

1.	Talabalarni o'qituvchi vazifasini bajarish uchun -	
2.	Talabalar rassom vazifasini bajarish uchun -	
3.	Talabalarni san'atshunos vazifasini bajarishga to'la-to'kis tayyorlash uchun -	

Tinglovchilar tomonidan to'ldirilgan jadval o'qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O'qituvchining varianti

Nº	Vazifalar	Qanday amaliyot, uning mazmuni
1.	Talabalarni o'qituvchi vazifasini bajarish uchun -	Pedamaliyot.
2.	Talabalar rassom vazifasini bajarish uchun -	Plener (dala amaliyoti).
3.	Talabalarni san'atshunos vazifasini bajarishga to'la-to'kis tayyorlash uchun -	Muzey amaliyoti.

Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat ularning nazariy tayyorgarligi, balki amaliy mashg'ulotlari ham yetakchi rol o'ynaydi, chunki amaliyotsiz nazariya hayotiy ahamiyatini yo'qotadi.

Shuning uchun biz talabalarning amaliy mashg'ulotlariga katta ahamiyat beramiz.

Har bir professional funksiyasi haqiqiy hayotiy vaziyatlarda ma'lum darajada tayyorgarlikni talab qiladi. Talabalarni san'atshunos vazifasini bajarishga to'la-to'kis tayyorlash uchun muzey amaliyoti, rassom vazifasini bajarish uchun – plener amaliyoti va nihoyat o'qituvchi vazifasini bajarish uchun - pedagogik amaliyot zarur. Muzey amaliyotining asosiy maqsadi - talabalarni tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish. Shuning uchun ular muzeylarga, ko'rgazma zallariga, tasviriy san'at galereyalariga ekskursiyalar tashkil etilib, ular buyuk tasviriy san'at ustalarining asarlari bilan tanishadilar.

4-topshiriq. Bu jadval asosida talabalar u yoki bu vazifalarni bajarish borasida qanday bilim va malakalarni o'zlashtirish zarur ekanligini bilib olishadi. Shuningdek, bu model asosida talabalarni

alohida kasbiy vazifalari bilan birgalikda ularni kasbiy pedagog faoliyatini bajarishi borasida qanchalik tayyorgarlik darajasini aniqlash ham mumkin.

Shuning uchun har bir tinglovchi o‘zining fikri bo‘yicha qanday bilim va malakalarni o‘zlashtirish kerak deb hisoblaydi va nima uchun, ana shularni bu jadvalga yozishi shart.

Jadvalni to‘ldiring

Талабаларни касбий фаолиятига тайёргарлик даражасини замонавий модели

**Санъатшунослик
вазифаси**

**Рассомлик
вазифаси**

**Педагогик
вазифаси**

**Санъатшунослик
билим ва малакалари**

**Тасвирлашнинг
билим ва малакалари**

**Педагогик
билим ва малакалар**

1	2	3	4	5

6	7	8	9

10	11	12	13	14

Tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasini shakllantirishda qanday bilim va malakalar kerak bo‘ladi.

Tinglovchilarga quyidagi jadvalni to‘ldirish talab etiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tasviriy san'at o'qituvchisi o'z faoliyatida qanday vazifalarini bajaradi?
2. Polifunksional tayyorgarlik tushunchasiga ta'rif bering.
3. O'qituvchi, san'atshunos va rassom sifatlariga mazmun-mohiyatiga ta'rif bering?
4. Tasviriy san'at o'qituvchisining tayyorgarlik komponentlarini nomlarini sanab o'ting.
5. Tasviriy san'at o'qituvchisining tayyorgarlik komponentlarini birontasiga bilim va malakasiga misol keltiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Miraxmedov K., Karimov B., Nurullaev I. Tasviriy san'at. Darslik. 6 sinf. -T., G.Gulyam. 2017.
2. Kuziev T., Abdirasilov S., Nurtaev U., Suleymanov A. Tasviriy san'at. Darslik. 5sinf. T., O'zbekiston. 2020.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2019.-160 b.

4-AMALIY MASHG'ULOT.

Badiiy ta'limning zamonaviy ko'pbosqichli tizimining didaktik asoslari.

Ishdan maqsad: Oliy o'quv yurtlarida ko'pbosqichli tizimida maxsus fanlarni o'qitish jarayonini tashkillashtirish. Ko'pbosqichli tizimining zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish.

1-topshiriq. Badiiy ta'limning zamonaviy ko'pbosqichli tizimining mazmuniga oid tushunchalarni izohlang!

"Xotira" metodi savollar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qachon qabul qilingan?
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosh maqsadi?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini ayting?
4. O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'limni tizimlashtiring?
5. Ko'pbosqichli tizim qanday ta'lim tushuncha bering?
6. "Bakalavr" akademik darajasini qanday tushunasiz?
7. Magistratura qanday ta'lim?

1. Javob: 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlis 1 chaqiriq IX sessiyasida.
2. Javob: Komil inson – yetuk malakali mutaxassis yetishtirish.
3. Javob: Shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.
4. Javob: Maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim, Oliy ta’lim, Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim.

Nº	Iboralar	Mazmuni
1.	Ko‘pbosqichli tizim	
2.	Bakalavriat –	
3.	Magistratura -	
4.	Shaxs	
5.	Davlat va jamiyat	
6.	Uzlusiz ta’lim	
7.	Fan	
8.	Ishlab chiqarish	

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

